



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025-yil 4-iyun, № 112 (9007)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



Dunyoda isbot talab qilmaydigan bir haqiqat bor: har qanday mamlakat taraqqiyoti sog'lom va bilimli avlodga bog'liq. Shu bois Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida sog'lom, bilimli, teran fikrli, vatanparvar yoshlarni tarbiyalash uchun barcha sharoitlarni yaratishimiz shart va zarur.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

YOZGI TA'TIL MAZMUNLI, SAMARALI BO'LSIN



O'quv yili tugashi bilan yurtimizdagi katta-kichik ta'lim-tarbiya muassasalari bo'shab, tevarak-atrof suv quygandek jimjit bo'lib qoladi. Yil bo'yi ilm olib, nihoyat ta'tilga chiqqan bolalarning esa bo'sh vaqtlari ko'payadi. Xo'sh, ular yoz bo'yi nima bilan mashg'ul bo'ladi? Bo'sh

Baxtli bolalik

vaqtlari qanday o'tadi? Bundan bolaning o'ziga, oilasiga, qolaversa, jamiyatimizga, davlatimizga qanday naf tegadi? Bugun bu savollarga javob topish borgan sari muhim bo'lib boryapti. Chunki bola uyda yolg'iz o'tirgani bilan qo'lga berib qo'yganingiz internetu telefon orqali uning ruhiga, ongiga, jismu joniga zimdan salbiy ta'sir o'tkazadigan pinhoniy "rahnamo"lari paydo bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas...



Biz va jahon

O'zbekiston vakili XMK qo'mitasi raisi etib saylandi

2 iyun kuni Jeneva shahrida Xalqaro mehnat konferensiyasining (XMK) 113-sessiyasi o'z ishini boshladi.

XMK Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)ning oliy organi bo'lib, unda umumiy mehnat va ijtimoiy masalalar hamda xalqaro mehnat standartlari muhokama qilinadi va tashkilotning umumiy siyosati belgilanadi. Tadbirda XMTga a'zo 187 ta davlatdan hukumatlar, ish beruvchilar va ishchilarning 3 000 dan ko'p vakillari ishtirok etmoqda.

Ta'kidlash joizki, Xalqaro mehnat tashkilotiga a'zo davlatlar delegatsiyalari tomonidan bir ovozdan qabul qilingan qaror bilan O'zbekistonning Jeneva shahridagi BMT bo'linmasi va boshqa xalqaro tashkilotlardagi doimiy vakil tarixida birinchi marta XMKning 113-sessiyasi Umumiy masalalar bo'yicha qo'mitasi raisi etib saylandi.



Xalqaro mehnat tashkilotining doimiy organi bo'lgan ushbu qo'mita konferensiyaning samarali faoliyatini ta'minlash, boshqaruvning murakkab masalalarini ko'rib chiqish va XMT institutsional barqarorligini ta'minlashda muhim strategik rol o'ynaydi. Xususan, u konferensiya tomonidan o'ziga havola qilingan masalalarni ko'rib chiqadi va xulosalar tayyorlaydi hamda protsessual va tashkiliy masalalarga e'tibor qaratgan holda XMT faoliyatining turli jihatlarini ustidan nazorat funksiyalarini amalga oshiradi.

Qo'mita o'z majlislarida 2025 yilda ijtimoiy rivojlanish bo'yicha ikkinchi jahon sammitini o'tkazish to'g'risidagi rezolyutsiya loyihasi, 2006 yildagi Dengiz mehnati konvensiyasi kodeksiga qo'shimchalarni ma'qullash, shuningdek, Myanma va XMT o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari hamda Falastinning tashkilot faoliyatidagi ishtiroki to'g'risidagi rezolyutsiya loyihasini ko'rib chiqadi.

Xalqaro mehnat tashkilotining asosiy qo'mitalaridan birida bunday yuksak va mas'uliyatli lavozimga saylanishi O'zbekistonning xalqaro nufuzi tobora ortib borayotgani, uning global ijtimoiy muloqotni rivojlantirishga qo'shgan faol hisssasi, mehnat munosabatlari sohasidagi yutuqlari e'tirof etilganidan dalolatdir.

Bu, shuningdek, O'zbekistonga strategik qarorlarni shakllantirishga hissa qo'shish, xalqaro mehnat huquqi tizimidagi obro'sini mustahkamlash, yaxshi boshqaruv, inson huquqlari va munosib mehnat tamoyillariga sodiqligini namoyish etish uchun noyob imkoniyat yaratadi.

Tashkilotga a'zo davlatlarning XMTdagi vakillari va uch tomonlama hamkorlari fikricha, O'zbekistonning rais lavozimiga tayinlanishi mamlakatda mehnat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, bandlik sharoitlarini yaxshilash, mehnatkashlar imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, Xalqaro mehnat tashkiloti tamoyillariga sodiqligining e'tirofi sifatida baholanmoqda. O'zbekiston raisligida qo'mita yuqori mas'uliyat, inklyuzivlik va oshkorlik bilan ish olib borishi, kun tartibidagi ustuvor masalalarning samarali ko'rib chiqilishini ta'minlashi va XMT institutsional salohiyatini yanada mustahkamlashiga ishonch bildirildi.

Xalqaro mehnat konferensiyasining 113-sessiyasi 13 iyungacha davom etadi.

"Dunyo" AA.
Jeneva

TA'LIMDA KORRUPSIYAGA O'RIN YO'Q

Kecha Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi Korruptsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining sayyor majlisi bo'lib o'tdi. Unda maktab va maktabgacha ta'lim tizimidagi korruptsiya holatlari, ularning oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar hamda mavjud muammolar muhokama qilindi.

Yig'ilish

Majlisda ta'kidlanganidek, asosiy maqsad — kamchiliklarni fosh etish emas, balki ularga birgalikda yechim topishdan iborat. Shu bois Senatning tegishli qo'mitalari va idoralar vakillaridan iborat ishchi guruh vazirlik bilan hamkorlikda vaziyatni har tomonlama o'rgandi.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ishlar doirasida "Korruptsiya soha" loyihasi bo'yicha qator dasturlar qabul qilindi. Shu bilan birga, maktabgacha va maktab ta'limiga oid 79 ta normativ-huquqiy hujjat korruptsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazildi.

Keyingi yillarda dunyo miqyosida korruptsiya holatlarining oldini olish uchun sohalarni raqamlashtirish maqbul yo'l sifatida ko'rilmogda. Shu bois ta'lim tizimida ham korruptsiya xavfini kamaytirish maqsadida bir qator davlat xizmatlari elektron shaklda joriy etildi. Jumladan, bolani maktabgacha ta'lim muassasasiga joylashtirish, 1-sinfqa qabul qilish, pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish, litsenziyalash, apostil (maxsus shtamp qo'yish tartibi) qo'yish kabi xizmatlar raqamlashtirildi. Bu, o'z navbatida, fuqarolar uchun qulaylik va shaffoflik yaratishga xizmat qilmoqda.

Majlisda ta'lim tizimidagi ba'zi xizmatlar uchun talab etiladigan hujjatlar soni qisqartirilgani, jarayonlar soddalashtirilgani korruptsiya xavfini kamaytirishga qaratilgan ishlar amaliy samarasi ekanligi qayd etildi.

Yoshlarda korruptsiyaga murosasizlik kayfiyatini shakllantirish maqsadida maktab va bog'cha tarbiyalanuvchilari uchun maxsus "Korruptsiyaga qarshi kurashish" o'quv dasturi ishlab chiqilgani ma'lum qilindi. Shu bilan birga, maktab va bog'chalarda GRACE dasturi doirasida halollik tarbiyasi joriy etilishi muhim ekani aytili.

"Halollik vaksinasi" bilan emlangan avlodni voyaga yetkazish — ta'lim tizimi oldidagi ustuvor vazifalardan biri bo'lishi lozim", deya ta'kidladi Oliy Majlis Senati Raisi. Buning uchun faqat o'quvchilar emas, balki o'qituvchi va tarbiyachilarning o'zi ham tizimni o'qitilishi, malakasi oshirilishi shart.

Majlis yakuni bo'yicha ta'lim tizimida korruptsiyaga qarshi chora-tadbirlarni yanada faollashtirish, ishga qabul qilish jarayonlarini to'liq raqamlashtirish, davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash, ichki nazorat tizimini kuchaytirish yuzasidan aniq topshiriqlar berildi.

«Xalq so'zi».

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

HAYOTIY MASALALAR VA TASHABBUSLARDA INSON MANFAATLARI USTUVOR



Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda Qonunchilik palatasi Spikeri N. Ismoilov yurtimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim voqe'larga to'xtalib o'tdi. Jumladan, shu yil 28-29 may kunlari Italiya Respublikasi Bosh vaziri Jorja Melonining mamlakatimizga rasmiy tashrifi, Samarqand shahridagi oliy darajadagi muzokaralarda O'zbekiston — Italiya munosabatlarining barcha yo'nalishi batafsil muhokama qilindi, o'zaro hamkorlikning yangi istiqbollari belgilab olingani ta'kidladi.

Shu yil 30 may kuni Qozog'istonning Ostona shahrida bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo — Italiya" formatidagi sammitda mamlakatimiz Prezidenti ishtirok etib nutq so'zlagani, bugungi

global va mintaqaviy aloqalardagi tendensiyalardan kelib chiqib, ko'p qirrali munosabatlarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratgani aytib o'tildi.

Prezidentimiz tashabbusining mazmun-mohiyati va ahamiyatini joylarda targ'ib qilish hamda qonunchilik sohasida qo'llab-quvvatlash yuzasidan tegishli choralar ko'rish, siyosiy partiyalar fraksiyalari, qo'mita va komissiyalar davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar, belgilab berilgan ustuvor vazifalardan kelib chiqib mazkur yo'nalishdagi o'z ishlarini faollashtirishi kerakligiga alohida urg'u berildi.

XALQCHIL SIYOSATNING AMALIY IFODASI

Mamlakatimizda "inson — jamiyat — davlat" tamoyili konstitutsiyaviy qonunchilik va konstitutsiyaviy amaliyot darajasida mustahkamlangan. Shu bois oxirgi 7-8 yilda ijtimoiy davlatning asosiy talablari amalga o'tirilgan. Xususan, ijtimoiy davlat sifatida sifatlari ta'lim, malakali tibbiy yordam, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, muhtojlarni uy-joy bilan, shuningdek, bandligini ta'minlash, xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan islohotlarni xalqimiz kundalik turmush tarzida his qilib yashamoqda.

Munosabat

Buni birgina tibbiyot va ta'lim sohalaridagi islohotlar misolida ham ko'rish mumkin.

So'nggi yillarda tibbiyot va ta'limga ajratilayotgan mablag'lar 6-7 karra oshirildi. Mahalladagi birlamchi bo'g'in bilan ixtisoslashtirilgan xizmatlarni bog'laydigan kompleks tizim yaratildi.

MAHALLIY SANOAT RAVNAQI YO'LIDA

Vaqt shiddati, mahsulotlar turining ko'payishi, raqobatning kuchayishi, eng avvalo, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, ularni eksport faoliyatiga jalb etishni yanada rag'batlantirishni taqozo etmoqda. Zotan, har qanday mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyoti mahalliy sanoatning qanchalik rivojlanishiga bevosita bog'liq. Aynan uning ravnaqi raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish, ish o'rinishlari yaratish, importga bo'lgan qaramlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Fikr

Davlatimiz rahbari raisligida mahalliy sanoatni rivojlantirish bo'yicha kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida bu boradagi ishlar aniq tahlil qilib berildi.

Dunyo miqyosida tashqi bozordagi tebranishlar sharoitida 1 millionga yaqin aholini o'zida jamlagan qo'chimchilik, qurilish materiallari, melboszlikni qo'llab-quvvatlash, iqtisodiyotimizning yana bir drayveri bo'lishi kutilayotgan zargarlik sanoatiga yangi sur'at bag'ishlash muhimligi qayd etildi.

AYOLLARNING EKOLOGIK BARQARORLIKNI SAQLASHDAGI HISSASI

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi Orziqul Qozixonova Dushanbe shahrida bo'lib o'tgan "Ayollarning muzliklarni asrashdagi o'rni" mavzuidagi forumda ishtirok etdi.

Forum

Tadbir mintaqqa mamlakatlari parlamentlari, xalqaro tashkilotlar, xususan, BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi vakillari, ekspertlar va faol xotin-qizlarni bir yerga jamladi. Forumning asosiy maqsadi – muzliklarni himoya qilish, iqlim o'zgarishiga moslashish va kuchaytirish bo'yicha sa'y-harakatlarni birlashtirishdan iborat.

O'zbekiston vakili o'z chiqishida mamlakatimizda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va atrof-muhitni asrab-avaylash bo'yicha amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar va ularning ahamiyatiga to'xtaldi. Ayniqsa, ekologik va qishloq xo'jaligi loyihalari amalga oshirishda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha oshirilayotgan tashabbuslari, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish, xalqaro hamkorlik va amaliy choralariga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, senator O'zbekistonning Orolbo'yi

mintaqasini tiklash bo'yicha tashabbuslari haqida fikr yuritarkan, global isish sharoitida tabiiy resurslarni barqaror boshqarishda ayollarning muhim rolini e'tirof etdi. Xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, ularning ekologik kun tartibini shakllantirishdagi faol ishtirokiga e'tibor qaratdi.

Bundan tashqari, Dushanbe shahriga tashrif doirasida O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston va Turkmaniston parlamentlari vakillarining Majlisi Oli Majlisi namoyandogani raisi Fayzali Dildozda bilan jamoaviy uchrashuvi ham o'tkazildi.

Unda parlamentlararo muloqotni mustahkamlash va yetakchi ayollar muloqoti doirasidagi hamkorlikni kengaytirish istiqbollari muhokama qilindi.

Dushanbe forumi dolzarb iqlim muammolarini muhokama qilish va gender jihatlarini hisobga olgan holda mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash uchun muhim maydonga aylandi.

«Xalq so'zi».

KENGASHGANGA – KENG DUNYO

Oliy Majlis Senatining Eshlar, xotin-izmlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi Orziqul Qozixonova doimiy asosda ishlovchi senator M. Jodirxonova "Mediatsiya instituti rivojlanishining zamonaviy tendentsiyalari va sud amaliyoti" mavzuida tashkil qilingan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada ishtirok etdi.

Konferensiya

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasida doimiy asosda ishlovchi senator M. Jodirxonova "Mediatsiya instituti rivojlanishining zamonaviy tendentsiyalari va sud amaliyoti" mavzuida tashkil qilingan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada ishtirok etdi.

Unda Oliy sud va Sudyalari oliy kengashi rahbariyati, sudyalari, yuridik oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, tadqiqotchilari, shuningdek, omma viy axborot vositalari vakillari qatnashdi.

Tadbir doirasida Turkiya, Qirg'iz Respublikasi, Ozarbayjon va Qozog'istonda tashrif buyurgan malakali sudyalari, mediatorlar, huquqshunos olimlar va tahlilchilar mediatsiya institutining rivojlanishi tarixi, huquqiy asoslari hamda amaliyoti yuzasidan o'z fikri va tajribasi bilan o'rtog'lashdi.

Hozirgi kunda rivojlangan xorijiy davlatlar huquqiy tizimida nizoni sudgacha

olib bormasdan, murosaa yo'l bilan hal qilishga qaratilgan mediatsiya – yarashiruv jarayoni alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yo'nalish o'zining ma'lum bir shartlari va tamoyillariga ega. Masalan, tomonlarning teng huquqliligi, ixtiyoriyligi, o'zaro hurmat, konfidensiallik, jarayonning shaffofligi, mediatsioning xolisligini aytish mumkin. Mazkur prinsiplarga og'ishmay rioya etish nizolarni adolati va oqilona hal qilishning muhim omilidir.

Konferensiyada mediatsiya nizolarni sudan tashqari hal etish, murosaga erishish va inson manfaatlarini ustuvor qo'yish madaniyati ekanligi alohida ta'kidlandi.

Turkiya, Qirg'iz Respublikasi, Ozarbayjon va Qozog'iston vakillari tomonidan ilmiy asoslangan va tahliliy ma'ruzalar taqdim etildi. Shuningdek, ishtirokchilarga O'zbekistonda mediatsiya institutining huquqiy asoslari, mavjud sud amaliyoti va kelgusidagi rivojlanish istiqbollari haqida batafsil ma'lumot berildi.

«Xalq so'zi».

HAMJIHATLIK VA BIRDAMLIKDA RIVOJLANISH SARI

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi a'zosi G. Ma'rufova "Hamjihatlilik. Birlik. Taraqqiyot" shiori ostida Yekaterinburg shahrida bo'lib o'tgan III Xalqaro xotin-qizlar forumida ishtirok etdi.

Anjuman

Mazkur nufuzli xalqaro tadbirda 20 dan ortiq xorijiy davlatlardan 5 mingdan ziyod ishtirokchilar qatnashdi.

Forumning yalpi majlisida so'zga chiqqan senator G. Ma'rufova mamlakatimizda rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritayotgan ayollar soni ortib borayotganini alohida qayd etib, O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingani hamda gender tenglikni ta'minlash

masalasi davlat siyosati darajasidagi yondashuv haqida fikr yuritdi.

Xalqaro forum doirasida mamlakatimiz parlamentlari yuqori palatasi a'zosi Sverdlovsk oblastining deputatlari, hokimiyat vakillari hamda tadbirkor ayollar bilan qator uchrashuvlar o'tkazildi. Ularda ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlash, o'zaro tajriba almashish, xizmatlar sohasida ekspert salohiyatini kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, o'shma tadbirlar o'tkazish bo'yicha qator kelishuvlarga erishildi.

«Xalq so'zi».

MAHALLIY SANOAT RAVNAQI YO'LIDA

"Agar dunyoda bitta ayol bo'lsa ham, zargarga ish topiladi" degan gap bor. Haqiqatan ham, keyingi yillarda mamlakatimizda zargarlikka qaratilayotgan alohida e'tibor tufayli soha mutlaqo yangi bosqichga chiqmoqda. Xususan, 2024 yil 23 iyulda qabul qilingan Prezident Farmoni sohada tub islohotlarni boshlab berdi. Mazkur hujjatga asosan zargarlik bo'yicha faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun soliq va bojxona sohalarida keng qamrovli imtiyozlar joriy etildi. Jumladan, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilish, "O'zbekzargarsanoati" uyushmasiga a'zo korxonalarini yer va mulk solig'laridan ozod etish, imtiyozli kredit liniyalarini ochish, xomashyo, ya'ni oltin yetkazib berish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish kabi chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Endi bu imtiyozlarning ko'lami va qamrovi yanada kengaydi. Xususan, zargarlar ham yakka tadbirkor sifatida tilla buyumlari savdosi bilan shug'ullanishi mumkin bo'ladi. Chet eldan mutaxassis olib kelish xarajatining 2,5 ming dollargacha qismi kamida 5 nafar shogird chiqarish sharti bilan qoplab beriladi. Bu sohada ham sanoat usuliga o'tish va milliy brendlarni qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rildi. Xususan, zargarlikda ishlatiladigan uskunalar va ularning butlovchi qismlari import bo'lgan ozod qilindi. Navoiy va Olmalik kon-metallurgiya kombinatlaridan oltinni bo'lib to'lash asosida sotib olish tartibi yana 3 yilga uzaytirildi. Nufuzli brendlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilib, ularning dizayni va qolipini olib kelish xarajatining 30 ming dollargacha qismi qoplab beriladigan bo'ladi.

Alohida ta'kidlash kerakki, zargarlikni sanoat darajasiga olib chiqish, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va dunyo brendiga aylantirish yo'lida mamlakatimizda shaxsan davlat rahbari tashabbusi bilan jiddiy va qat'iy qadamlar tashlanmoqda. Kichik tadbirkorlik

uchun yaratilgan sharoitlar, kadrlar tayyorlashga berilgan subsidiyalar, texnologiyalar olib kelishdagi imtiyozlar va xalqaro hamkorlik – bularning barchasi zargarlik sohasini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda. Eng muhimi, bu orqali nafaqat iqtisodiyotda ish o'rnlari yaratiladi, balki milliy madaniyat va hunarmandchilikning jahon miqyosida yanada ommlashadi.

Iqtisodiyotning qat'iy qonuni shundayki, mahsulot bo'lgani bilan uni sotadigan bozor bo'lmasa yoki alo sifatlari tovar haqida hyech kim bilmasa – sohada o'sish bo'lmaydi. Aynan shu kenglikni ta'minlash uchun Prezidentimiz yig'ilishda e'tirof etgan eng muhim masalalardan biri – milliy brendlar yaratish va ularni xalqaro bozorga olib chiqish bo'lib, bunda asosiy e'tibor Milliy brendlarni qo'llab-quvvatlash kompaniyasini tashkil etishga qaratildi.

E'tiborga molik jihati, yangi tashkilot milliy mahsulotlarni xalqaro bozorga kiritish uchun strategik rejalar ishlab chiqardi. Qolaversa, kompaniya xalqaro standartlarga mos ravishda mahsulotlarga sifat sertifikatlarini berish tizimini yo'lga qo'yadi. Bu mahsulotlarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi hamda xaridorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman, Milliy brendlarni qo'llab-quvvatlash kompaniyasi mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tomonidan tayyorlangan milliy mahsulotlarni dunyo bozoriga chiqarishda jiddiy qadamdir. Sirasini aytganda esa mahalliy sanoat har qanday mamlakat iqtisodiyotining yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Zero, sanoat rivojlansa, unga bog'liq bo'lgan qishloq xo'jaligi, transport, logistika, ta'lim va xizmat ko'rsatish sohalari ham yuksaladi.

Anna DOBRIX,

Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi a'zosi.

METROPOLITEN – URBANIZATSIYANING STRATEGIK DRAYVERI



Har qanday yurt taraqqiyotining muhim mezonlaridan biri aholining erkin, xavfsiz va samarali transport vositasiga ega bo'lishi bilan belgilanadi. Bu imkoniyat faqat kundalik turmushni yengillashtirish bilan cheklanmaydi, balki jamiyatdagi ijtimoiy adolat, iqtisodiy tenglik va davlatning inson kapitaliga bo'lgan munosabatini ham yaqqol namoyon etadi.

Nuqtai nazar

Ekologik toza va qulay

Metropoliten – shahar infratuzilmasining markaziy elementlaridan biri bo'lib, uning rivoji va yangilanishi mamlakat taraqqiyotining o'ziga xos ko'rsatkichi sanaladi. Shu ma'noda, so'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lami hayotiy islohotlar jarayonida transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ayniqsa, metropoliten tarmoqlarini kengaytirish davlat siyosatining muhim strategik yo'nalishiga aylandi. Metropoliten infratuzilmasini rivojlantirish iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta'minlaydi. Qolaversa, O'zbekistonning xalqaro imiji va investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga ham katta hissa qo'shadi.

Aslida ham, zamonaviy transport tizimlari rivojlangan mamlakatlarda ishonchli va iqtisodiy rivojlanishga ochiq yurtlar sifatida tan olinadi. Bu, o'z navbatida, mamlakatning xalqaro darajadagi mavqeiini mustahkamlashga, shuningdek, logistika sohasidagi imkoniyatlarini kengaytirishga hamda yangi investitsiyalar va texnologik yangiliklarni jalb qilishga qulaylik yaratadi. Ayniqsa, "yashil" iqtisodiyot tamoyillari asosida ekologik toza transportni joriy etish O'zbekistonning xalqaro majburiyatlariga ham mos keladi va barqaror taraqqiyot maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan qadamlarni ko'rsatadi.

Bugungi kunda Toshkent shahrida qurilayotgan yangi metro bekatlari faqat funksional jihatdan samarali emas, balki milliy madaniyat, tarixiy meros va zamonaviy dizayn yechimlarini ham mujassam qilgan holda loyihalashtirilmoqda. Har bir bekatning dizayni va arxitekturasini, uning san'atkorona bezaklari va ma'naviy yuki, shahar aholisi uchun ilhom manbai bo'lib, millatning madaniy ruhini aks ettiradi. Metropolitenning har bir yangi bekatini shaharning zamonaviylik va madaniyat bilan muvozanatli rivojlanishini namoyon qiladi.

Shu bilan birga, intellektual shahar konsepsiyasi doirasida, avtomatlashtirilgan chipta tizimlari, raqamli navigatsiya, videonazorat va yo'lovchi oqimini tahlil qiluvchi platformalar kabi raqamli yechimlar joriy etilmoqda. Bu nafaqat samaradorlik va xavfsizlikni oshiradi, balki metropoliten tizimini real vaqtda boshqarish va optimallashtirish imkoniyatini ham yaratadi. Bu raqamli texnologiyalar aholining transport xizmatlaridan foydalanish jarayonini aniq va barqaror qilib, to'lov tizimlarining integratsiyasini ta'minlashga yordam beradi.

Tarixiy yo'l bosib o'tildi

Toshkent metropolitenining 9 bekatdan iborat birinchi navbati 1977 yil noyabr oyida foydalanishga topshirildi. Mustaqillik yillarida Toshkentda shahri markazini katta tarajoyi massiv bilan bog'lovchi 8 ta bekatdan iborat Yunusobod liniyasi qurilib foydalanishga topshirildi. Yunusobod yo'nalishida uzunligi 2,9 km. bo'lgan yer osti metropoliten liniyasi hamda "Yunusobod" va "Turkiston" bekatlari barpo etildi. Yer osti

halqa metropoliten liniyasining 2-bosqich – 11,7 km. uzunlikdagi 7 ta bekatdan iborat bo'lgan qismi hamda 6,2 km. uzunlikdagi Sergeli yer usti metropoliten liniyasining 5 ta bekatni foydalanishga topshirildi.

So'nggi yillarda esa poytaxt metropoliteni infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida qo'shimcha yer osti va yer usti metro yo'nalishlari hamda metropoliten bekatlari barpo etildi. Ushbu davr ichida 33,2 km. metro yo'nalishlari qurilib, 21 ta zamonaviy metro bekatni foydalanishga topshirildi. Shuningdek, yillar davomida qurilishi to'xtab qolgan Yunusobod yo'nalishining oxirgi 2 ta yangi bekatni qisqa muddatlarda qurib bitkazildi. Bundan tashqari, 19 ta bekatni o'z ichiga olgan Sergeli hamda yer usti halqa yo'nalishlari foydalanishga topshirildi.

E'tiborsiz, 2016 – 2024 yillarda amalga oshirilgan ishlar natijasida metropoliten liniyasining umumiy

XALQCHIL SIYOSATNING AMALIY IFODASI

Ilgari faqat poytaxtda bajarilgan 400 dan ortiq yuqori texnologik tibbiy amaliyotlar viloyat va tumanlarda o'tkazilmoqda. Masalan, avvallari buyrak ko'chirish bilan bog'liq amaliyot uchun fuqarolar vaqti va mablag'ini sarflab poytaxtga kelishga yoki xorijiy davlatga borib davolanishga majbur bo'lish edi.

Bugungi kunda ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan oilalar farzandlari ta'limiga ham alohida e'tibor qaratilib, har yili 2 ming nafar xotin-qizlarning oliy ta'lim olishdagi xarajatlari qoplab berilmoqda.

Shuningdek, daromadi va sog'lig'ini yo'qotib, og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan fuqarolarni qo'llab-quvvatlash ko'lami bosqichma-bosqich kengaytirilib, nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatga moslashuvini ta'minlash uchun ijtimoiy xizmat va yordamlar hajmi oshirilmoqda.

Yana bir muhim o'zgarish – bu aholining iqtisodiy imkoniyati oshgani. Bundan besh yil avval 23 foiz yoki 7,5 mln. nafar aholining daromadi kambag'allik chegarasiga ham yetmas edi. O'tgan davrda 3,5 mln. fuqaro uchun daromad olish imkoniyati yaratilib, kambag'allikni 11 foizga tushirishga erishildi. Kelgusi uch yilda uni 7 foizga tushirish reja qilingan. Xususan, kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadida joriy yil byudjetdan 500 mlrd. so'm mablag' yo'naltirilgan. Yana bir yangilik – yil boshidan buyon ijtimoiy xizmat va yordamlar va imtiyozlarni o'zida mujassam etadigan yagona "Ijtimoiy karta" tizimi bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda.

Bularga qo'shimcha ravishda bolalar mehnatiga yo'l qo'yamasslik, nogironligi bor shaxslar va keksa avlod vakillari huquqlari ishonchli muhofazasi hamda fuqarolarning ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand

toifalarini uy-joy bilan ta'minlash, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori belgilanishi kabi o'zgarishlar shular jumlasidandir.

Aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'lamin kengaytirish, fuqarolarning daromadlarini izchil oshirib borish siyosatini davom ettirish hamda ularning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish maqsadida kuni kecha qabul qilingan "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi Prezident Farmoni joriy yil davomida aholimizning hayot darajasini yaxshilash, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va daromadlar orasidagi tafavutni kamaytirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Farmon bilan 2025 yil 1 iuldan boshlab pensiyalar va nafaqalar hamda kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqalari va moddiy yordam to'lovlari miqdorlari 10 foizga oshirilishi belgilandi. Ushbu tashabbus aholining katta qismi uchun nafaqat oziq-ovqat, balki dori-darmon, kommunal to'lovlarga ham yordam bo'ladi. Xususan, bolalar nafaqasi miqdorining oshishi oila byudjetiga sezilarli yengillik keladi. Masalan, uch nafar farzandli bor oila oyiga kamida 740 ming so'm nafaqa oladi. Stipendiya bilan kun kechirayotgan talabalar uchun kitob, transport, ovqat va boshqa ehtiyojlar uchun qo'shimcha mablag' paydo bo'ladi.

Albatta, bularning barchasi bugun konstitutsiyaviy norma sifatida mustahkamlangan "Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat" tamoyili har jabhada aks etib borayotganini yaqqol ifodalaydi.

Gulnora ABDUVOHIDOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining
Mehnat, sog'liqni saqlash va ijtimoiy
masalalar qo'mitasi a'zosi.



maqsadi – metropoliten tizimi uchun yuqori uquvli kadrlarni tayyorlash, malaka oshirish va kasbga tayyorlash sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy qilish. Ushbu maqsadga erishish uchun bir qator muhim ishlar bajarildi. Markaz tomonidan 12 ta o'quv dasturi tayyorlandi. Shuningdek, 5 ta dastur optimallashtirildi, ya'ni ularning mazmuni va o'qitish usullari jadal rivojlanib borayotgan texnologiyalar va talablarga moslashtirildi.

2024 yilda 400 nafar xodimning malakasi oshirildi. Bu jarayonda turli yo'nalishlar bo'yicha yigit va qizlarning uquvini yuksaltirish uchun yangi kurslar va seminarlar tashkil etildi. 10 nafar xodim defektoskopist kasbiga tayyorlandi. Defektoskopistlar – metropoliten tizimidagi o'ta muhim texnik mutaxassislar bo'lib, ular texnik jihozlarning holatini tekshirish va ularni ta'mirlash bilan shug'ullanadi. 21 nafar xodim eskalator mashinisti kasbi yo'nalishida tahsil oldi. Eskalatorlarning ishini to'g'ri va xavfsiz amalga oshirish uchun maxsus malakaga ega

Metropoliten kadrlarini tayyorlash ilmiy-innovatsion markazida ta'lim olayotgan kursantlarning o'quv amaliyotini sifatlil olib borish maqsadida Toshkent davlat transport universiteti bilan hamkorlikda universitet o'quv poligoni, o'quv amaliy simulyatorlari va auditoriyalaridan foydalanish uchun imkoniyat yaratildi.

Yetuk kadrlarga hamma joyda ehtiyoj bor

2024 yilda yuqori va o'rta bo'g'in rahbar lavozimlariga kadrlar zaxirasini shakllantirish maqsadida Toshkent davlat transport universitetining kasbiy faoliyatiga mos bo'lgan sirtqi ta'lim yo'nalishlariga 95 nafar, xalqaro ta'lim dasturlariga 94 nafar metropoliten xodimi o'qishga yuborildi. Hozirgi kunda korxonalar hisobidan sirtqi ta'lim shakli bo'yicha 362 nafar xodim o'qitilmoqda. O'tgan yili TDTU va qisman boshqa oliy ta'lim muassasalaridan 303 nafar bitiruvchi "Toshkent metropoliteni" DUK tarkibidagi xizmat, depo va bo'limlarga ishga qabul qilindi.

Shuningdek, ushbu universitetning "Transport vositalari muhandisligi" (metropoliten) yo'nalishida tahsil olayotgan 23 nafar (2, 3 va 4-bosqichdagilar) talaba metropoliten depo va xizmatlarida to'liq bo'lmagan ish rejimida faoliyat olib bormoqda.

Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Toshkent davlat transport universiteti talaba-yoshlari uchun "Toshkent metropoliteni" DUK boshlig'i stipendiyasi joriy etildi. Ishlab chiqarish va ta'lim integratsiyasini amalga oshirish maqsadida "Toshkent metropoliteni" DUK tarkibidagi "Chilonzor" elektrodeposida ushbu oliy ta'lim dargohining Elektr harakat tarkibi kafedrasi filiali ochildi.

Bundan tashqari, TDTU professor-o'qituvchilarining metropoliten tarkibidagi xizmat va depolarda stajirovka o'tashlari uchun tegishli sharoit yaratildi, 2024 yil davomida 50 dan ortiq professor-o'qituvchilar metropoliten stajirovka o'tadi.

Metropoliten – faqat transport vositasi emas, balki urbanizatsiyaning strategik drayveri, megapolisning ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil. Shuningdek, uning rivojlanishi umumiy iqtisodiy o'sishga katta hissa qo'shadi. U shaharning turli hududlarida istiqomat qiladigan aholiga bir xil sharoitda, bir xil tezlikda va xavfsiz harakatlanish imkoniyatini yaratishi bilan muhim ahamiyatga ega.

Suhrob TO'RAQULOV,
«Toshkent metropoliteni» DUK boshlig'i o'rinbosari,
Toshkent davlat transport universiteti prorektori,
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.

HAYOTIY MASALALAR VA TASHABBUSLARDA INSON MANFAATLARI USTUVOR



Majlisda, shuningdek, Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining 2024 yildagi va 2025 yil birinchi choradagi ijrosi to'g'risidagi hisobot hamda parlament nazorati faoliyatiga doir masalalar ko'rib chiqildi.

Davlat byudjetining 2024 yildagi ijrosi muhokamasi

Deputatlar O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining 2024 yildagi ijrosi to'g'risidagi hisobotni ko'rib chiqdi.

Hisobotni O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari – Iqtisodiyot va moliya vaziri J. Qo'chqorov taqdim etdi.

Ta'kidlanganidek, Davlat byudjetining 2024 yildagi ijrosi "2024 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonunda belgilangan byudjet parametrlari doirasida amalga oshirilgan bo'lib, jahonda xalqaro savdodagi murakkab vaziyatlarga qaramasdan 2024 yilda ham barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkonini berdi. Yalpi ichki mahsulot hajmi 2023 yildagiga nisbatan 6,5 foiz, iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri bo'lgan xizmatlar sohasi 12,9 foiz, qurilish sohasi 8,8 foiz hamda sanoat sohasi 6,8 foizga o'sgan. Shuningdek, mamlakatda yillik inflyatsiya 9,8 foizni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasi 65,9 mlrd. dollarga yetgan. 2024 yil uchun Davlat byudjeti daromadlari o'tgan yildagiga nisbatan 118,4 foizga, Davlat byudjeti xarajatlari qariyb 111,0 foizga bajarilgan.

Deputatlar Davlat byudjeti ijrosi barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash, har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish dasturlarini amalga oshirishga qaratilganini alohida e'tirof etdi.

Davlat byudjeti xarajatlari, birinchi navbatda, ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan xalq vakillari e'tiborida bo'ldi. Hisobot davrida byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilarning ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlari o'z vaqtida amalga oshirilgan, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, uy-joy bilan ta'minlash dasturlari uchun mablag'lar hеч qanday "kam-ko'stirlasiz" moliyalashtirilgan mamlakatimiz "O'zbekiston – ijtimoiy davlat" tamoyiliga amal qilingan holda rivojlanayotganiga yorqin misoldir.

Majlisda deputatlar Davlat byudjeti mablag'larining 49,0 foizi yoki 152,3 trln. so'm ijtimoiy soha xarajatlari moliyalashtirishga sarflangan, ushbu xarajatlarning 89,3 foizi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, uy-joy bilan ta'minlash dasturlarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan ijobiy baholashdi. Xususan, ta'lim-tarbiya sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish uchun 71,2 trln. so'm, aholiga sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatishini ta'minlash maqsadida 36,0 trln. so'm, kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqasi, moddiy yordam va kompensatsiya to'lovlari uchun 15,4 trln. so'm miqdorida mablag' yo'naltirilgan bugungi kunda o'z ifodasini topayotganini ko'rsatmoqda.

Xalq vakillari erishilgan ijobiy natijalar bilan bir qatorda, byudjet mablag'laridan samarali foydalanishda kamchiliklar mavjudligiga e'tibor qaratdi.

Deputatlar qizg'in muhokama davomida qonunda tasdiqlangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning bajarilishiga, davlat xaridlari sohasidagi kamchiliklarga, vazirlik va idoralarda ichki nazorat tizimi faoliyatining yanada takomillashirilishiga, Hukumatni Davlat byudjeti ijrosida natijadorlikka erishishiga alohida e'tibor qaratish, shuningdek, mas'ul vazirlik va idoralar rahbarlari zimmasiga byudjetdan yo'naltirilgan mablag'larning maqsadli sarflanishiga shaxsiy javobgarlik yuklatish va ta'sirchan choralar ko'rish bo'yicha bir qator takliflarni ilgari surdi.

Xalq vakillari Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining 2024 yildagi ijrosi bo'yicha fikr bildirar ekan, uning izchil bajarilishi bir qator omillarga bog'liq ekanini ta'kidladilar. Jumladan, deputat Otabek Musurmonovning qayd etishicha,

yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga muvofiq, Davlat byudjetining ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish Qonunchilik palatasi faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi. Shu bois siyosiy partiyalar fraksiyalari va barcha qo'mitalar o'z yo'nalishlaridan kelib chiqib, Davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lar o'z vaqtida o'zlashtirilishi va maqsadli sarflanishi yuzasidan tegishli mansabdor shaxslarning axborotlarini muntazam eshitib bormoqda.

Shuningdek, vazirning hisobotida energiya resurslari tariflari masalasiga ham alohida to'xtalib o'tilgan deputatlar diqqat markazida bo'ldi. Xususan, deputat Nargiza Salomova hisobotida elektr energiyasi bo'yicha bazaviy tariflar ma'lum miqdorda oshganiga qaramay ijtimoiy himoya masalalariga e'tibor qaratilganini ta'kidladi. Masalan, kam ta'minlangan oilaning oylik daromadi jon boshiga 1 milliondan kam bo'lsa, 200 kVtgacha ishlatilgan elektr energiyasi to'lovi bazaviy me'yor doirasida bo'ladi. Bunga qo'shimcha yana 200 kVt ishlatadigan bo'lsa, 150 kVtning narxi ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan to'lab beriladi. Ya'ni ijtimoiy reestriga kirgan oilaga ko'mak beriladi. Agar o'rta holatdagi oila (yoz vaqtida asosan ko'p ishlatiladi) 500 kVt elektr ishlatsa, uning oylik to'lovi o'zgarmasdan qoladi. Umuman, may oyidan boshlab elektr bo'yicha oshirilgan tarif oilaga sezilarli xarajatni ko'paytirmaydi. Prezidentimizning joriy yil apreil oyidagi tegishli qaroriga ko'ra, noyabrdan boshlab 1,3 mln. aholiga, ya'ni 13-14 foiz oilaga 1 mln. so'mdan yordam berish ko'zda tutilgan. Ushbu qarorga qo'shimcha topshiriq sifatida kuz-qish mavsumigacha yana ko'makka muhtoj aholining ro'yxati qilinib, ularga ko'mak berish rejalashtirilgan. Xalq vakili amalga oshirilayotgan bu kabi ijtimoiy islohotlar ko'makka muhtoj aholini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilishini e'tirof etib, joylarda aholi o'rtasida bu bo'yicha keng ko'lami tushuntirish ishlarini olib borish maqsadga muvofiqligini ta'kidladi.

Majlisda ko'rib chiqilgan masala yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

2025 yilning birinchi choragi: ko'rsatkich va natijalar qanday?

Majlisda deputatlar O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining 2025 yil birinchi choragidagi ijrosi to'g'risidagi hisobotni ham ko'rib chiqdi.

Ta'kidlanganidek, jahonda xalqaro savdodagi murakkab vaziyatlarga qaramasdan yalpi ichki mahsulot hajmi o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 6,8 foiz, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish 6,5 foiz, bozor xizmatlari 12,6 foiz, qurilish ishlari 10,8 foiz va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish 3,8 foizga oshgan mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sish jarayonlari davom etayotganini ko'rsatmoqda. Shuningdek, hisobot davrida Davlat byudjeti daromadlari 104,5 foizga bajarilgan hamda xarajatlar bo'yicha reja ko'rsatkichlari 92 foizni tashkil qilgan byudjet barqarorligi ta'minlanayotganini dalolat bermoqda.

Muhokamada xalq vakillari mamlakatimizda ijtimoiy sohaga qaratilayotgan e'tibor izchil kuchayib borayotganiga e'tibor qaratdi. Buning tasdiqi sifatida hisobot davrida byudjetdan ijtimoiy xarajatlar uchun 39,9 trln. so'm yoki 2024 yilning mos davridagiga nisbatan qariyb 6,0 trln. so'mga ko'p mablag' ajratilgan ko'rsatildi. Aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturlari moliyalashtirish uchun xarajatlar avvalgi yillarga nisbatan to'liq moliyalashtirilganligiga ahamiyat qaratildi.

Deputatlar erishilgan ijobiy natijalar bilan bir qatorda, ayrim xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilganligiga ham tanqidiy baho berishdi. Xususan, Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasiga ajratiladigan mablag'lardan umuman foydalanilmagan. Neyrosensor karlik yoki zaif eshitadigan bolalarda koxlear implantantlardan foydalanilgan holda operatsiyalar o'tkazish uchun mablag' yo'naltirilgan. Bolalarni qo'llab-quvvatlash

jamoat fondi mablag'larini shakllantirish uchun ajratilgan mablag'larning 59,6 foizi o'zlashtirilmagani jiddiy tanqid ostiga olindi.

Shuningdek, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan cho'llanish, shamol eroziyasining oldini olish hamda himoya o'rmonlarini (ihota) barpo etish xarajatlari 46,0 foizga, Transport vazirligi tomonidan obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalarga ajratilgan mablag'lar esa 1,5 foizga ijro etilganligi deputatlar tomonidan salbiy baholandi.

Majlisda deputatlar shu yil 5 mart kuni Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashi yig'ilishida davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, vazirliklar va idoralar tomonidan keyingi choraklarda byudjet mablag'laridan maqsadli hamda samarali foydalanish, shuningdek, xarajatlarning natijadorligini oshirish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar kiritdi.

Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari kun tartibidagi masala yuzasidan o'z munosabatlarni bildirdi.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi a'zolari iqtisodiyotni erkinlashtirishga qaratilgan islohotlarni davom ettirish hamda tarmoq, soha va hududlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va tekzor tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlashda byudjetdan ajratilayotgan mablag'larning samarali hamda maqsadli sarflanishiga e'tibor qaratdi. Dunyoda kuzatilayotgan nobarqarorliklar sharoitida mamlakatimizda yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari saqlanib qolishda tadbirkorlik faolligini yanada oshirishda byudjet-soliq siyosatining rag'batlantiruvchi mexanizmlaridan to'g'ri foydalanishni ta'minlashga oid taklif va tavsiyalar berildi.

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi a'zolari Davlat byudjetidagi ijtimoiy xarajatlarning maqsadli va natijadorligiga urg'u berdi. Shu o'rinda mablag' va mablag'ga ta'lim, madaniyat va sport sohasidagi xarajatlarning ushbu sohalarga oid rivojlantirish dasturlariga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlariga mosligi tahlil qilindi. Davlat-xususiy sheriklik asosida mablag'ga ta'lim tashkiloti tashkil qilgan tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalari o'z vaqtida berilmayotgani hamda tarixiy arxeologik joylar to'g'risida xorijiy tillarda ma'lumotlar kamligi, muzey-qo'riqxonalar yetarli darajada muhofaza qilinmayotgani, ilmiy tadqiqotlar, ilmiy ishlar olib borilmayotgani e'tirozlariga sabab bo'ldi. Fraksiya a'zolari kelgusi choraklarda ijtimoiy sohaga oid rivojlantirish dasturlarining ijrosini sohaga ajratilgan byudjet xarajatlarning natijadorligi bilan baholash bo'yicha o'z takliflarini berdi.

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi deputatlar ixtisoslashtirilgan muassasalar tomonidan ko'rsatilayotgan bir xil turdagi tibbiy xizmatlar bazaviy narxlarini o'rtasida jiddiy farqlar borligiga, Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari o'zlashtirilmagani, shuningdek, umumta'lim maktablarida o'quvchilarga maktab darsliklari to'liq va o'z vaqtida yetkazib berilmayotganiga e'tiroz bildirdi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi vakillari muxolifat fraksiya sifatida hisobotda ayrim vazirlik va idoralar tomonidan byudjet mablag'lari o'z vaqtida o'zlashtirilmagani, mablag'lar samarasiz ishlatilayotgani, noto'g'ri ajratilgan subsidiyalarning mavjudligi, imtiyozlar maqsadsiz berilganligiga urg'u berdi. Davlat xaridlari sohasida qonunchilikka zid ravishda to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzilayotgani natijasida davlat byudjetidan ajratilgan mablag'larni o'zlashtirishda korruptsiya holatlari kelib chiqishiga yo'l qo'yilayotganiga e'tiroz bildirildi. Bundan tashqari, rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishda ayrim byudjetdan mablag' oluvchi vazirlik va idoralar tomonidan maqsad indikatorlariga erishilmagan tanqidiy baholandi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi a'zolari Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yilida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga ajratilgan byudjet mablag'lari to'liq o'zlashtirilmagani nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lishdi. Xususan, cho'l, tog'li va tog'oldi hududlarda cho'llanish va qum ko'chishi, tuproqning suv va shamol eroziyasining oldini olish hamda ekologik muhitni yaxshilash maqsadida himoya o'rmonlarini (ihota) barpo etish xarajatlari surunkali ravishda kam miqdorda o'zlashtirilishiga e'tiroz bildirildi.

Majlisda mas'ul qo'mita – **Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi Sharofiddin Nazarov** Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining

2025 yil birinchi choragidagi ijrosi tanqidiy ko'rib chiqilgan, berilgan savollarga vazirlik va idoralar mas'ullaridan atroflicha javoblar olinganiga urg'u berib, albatta, ushbu masalalar parlamentning doimiy nazoratida ekanini ta'kidladi. Qolaversa, kuni kecha siyosiy partiyalar fraksiyalari yig'ilishlarida ham ushbu hisobot qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lib, tanqidiy-tahliliy ko'rib chiqilgan va qator dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashilgan aytili.

Majlis yakunida Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining 2025 yil birinchi choragidagi ijrosi to'g'risidagi hisobot yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

Shu bilan birga, fraksiyalar va qo'mitalarga Davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lar hisobidan amalga oshirilayotgan davlat dasturlari, tarmoqlarga oid, hududiy dasturlar va loyihalarning natijadorligini o'rganish, bu borada deputatlar nazoratini kuchaytirish choralarini ko'rish, tegishli vazirlik va idoralar rivojlantirish dasturlari hamda ularning maqsadli indikatorlari ijrosini o'z faoliyati yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda tahlil qilib, tegishli vazirlik va idoralar rahbarlarining axborotini eshitib borishga oid tavsiyalar berildi.

Xorijiy mamlakatlarda bo'lib turgan fuqarolar huquqlari himoyasi yo'lida

Majlisda "Xorijiy mamlakatlarda bo'lib turgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida" parlament so'roviga berilgan Tashqi ishlar vaziri B. Saidovning javobi ko'rib chiqildi.

Parlament so'roviga javobda keltirilishicha, so'nggi yillarda xorijda bo'lib turgan O'zbekiston fuqarolarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, xorijda hujjatsiz qolib ketgan fuqarolarimizga Vatanga qaytish guvohnomasi va pasport rasmiylashtirilgan, konsullik ro'yxatiga olish, doimiy yashashga ruxsatnoma rasmiylashtirish, sudlanmagani haqida ma'lumotnoma olish, haydovchilik guvohnomalarini almashtirish



bo'yicha muayyan ishlar bajarilgan. Rasmiy hujjatlarni legallashtirish, apostil qo'yish, notarial va FDHYO harakatlari bajarilib, fuqarolik masalalari yuzasidan hujjatlar qabul qilingan.

Shuningdek, xorijda bo'lgan O'zbekiston fuqarosini ish bilan ta'minlashda ko'mak ko'rsatilib, yashash uchun mablag'siz qolgan fuqaroga moddiy yordam berilgan. Fuqaroning noqonuniy olib qo'yilgan hujjatlari qaytarilib, nopok ish beruvchilardan oylik maoshlari undirib berilgan.

Prezidentimiz tashabbusi bilan Yaqin Sharqdagi qurolli mojarolar hududidan fuqarolarimizni O'zbekistonga qaytarish uchun 2019 yil 30 may oyida ilk marta "Mehr" operatsiyasi o'tkazilgan. 2019 – 2021 yillarda insonparvarlik operatsiyalari o'tkazilib, vakolatli idoralar hamkorligida olovli nuqtalarda bo'lgan O'zbekiston fuqarolari, asosan, ayollar va bolalar vatanga olib kelingan.

Bundan tashqari, 21 ta (AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Norvegiya, Italiya, Portugaliya, Chexiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya va qo'shni davlatlarda) yangi diasporal tashkilotlar tashkil etilgan. Hozirgi kunda 28 ta mamlakatda 220 dan ortiq vatandoshlar tomonidan tuzilgan birlashma va milliy madaniy markazlar faoliyat ko'rsatyapti.

Berilgan javobga ko'ra fuqarolarimiz qayerda bo'lishidan qat'i nazar, ularning manfaatlari va huquqlarini himoya qilishni ta'minlash maqsadida xorijda bo'lgan O'zbekiston fuqarolariga qulay sharoitlar yaratish va konsullik xizmatlarini ko'rsatish tizimini raqamlashtirish ishlari amalga oshirilgan.

Hozirgi kunda xorijda vaqtinchalik va doimiy istiqomat qiluvchi O'zbekiston fuqarolariga 15 xil konsullik xizmati to'liq raqamlashtirilgan bo'lib, elektron portal orqali interaktiv shaklda xizmat ko'rsatib kelinmoqda.



Vazir javobida keltirilishicha, fuqarolik holatlarini dalolatnoma yozuvlarini qayd etish masalalari bo'yicha fuqarolar alohida elektron platforma orqali ariza topshirishi uchun ham keng imkoniyatlar yaratilgan.

Majlisda parlament so'roviga javobda ko'rilgan masalalar bo'yicha atroflicha ma'lumotlar taqdim qilganligi qayd etilib, Tashqi ishlar vazirining javobi ma'lumot uchun qabul qilindi.

Raqamli texnologiyalar vaziri javobi ma'lumot uchun qabul qilindi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2025 yil 6 may kuni bo'lib o'tgan majlisida Raqamli texnologiyalar vaziri Sh. Shermatovga "BMTning "Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi"da O'zbekiston Respublikasining reytingini yaxshilash bo'yicha ko'rilayotgan choralar to'g'risida" parlament so'rovi yuborilgan edi.

Majlisda deputatlar mazkur parlament so'roviga yuborilgan javobni ko'rib chiqdi. Ushbu javobda keltirilishicha, bugungi kunda belgilab berilgan vazifalar ijrosi doirasida "Raqamli hukumat loyiha ofisi" faoliyati yo'lga qo'yilib, raqamli hukumat tizimini rivojlantirish yuzasidan amaldagi holat bo'yicha tahlillar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha zarur choralar ko'rilmoqda.

Natijada 2024 yilda e'lon qilingan reyting natijalariga ko'ra O'zbekiston 193 ta davlat orasida 63-o'rinni egallab, o'tgan hisobot davriga nisbatan 6 pog'onaga, oxirgi 2 ta reyting natijalariga ko'ra esa umumiy 24 pog'onaga ko'tarilgan. Eng muhimi, O'zbekiston ilk marotaba Elektron hukumatni rivojlantirish indeksining baland guruhi (High EGD)dan Elektron hukumatni rivojlantirish indeksining juda baland guruhiga (Very High EGD) qo'shilgan.

Shu bilan birga, sog'liqni saqlash sohasini raqamlashtirish jarayonini doimiy ravishda takomillashtirish, tibbiyot muassasalarida amalda foydalanilayotgan barcha axborot tizimlarini yagona ekotizimga birlashtirish, bemorlarning yagona ma'lumotlar bazasini yaratish maqsadida birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalari hamda davolash-profilaktika muassasalari faoliyatini avtomatlashtirishga qaratilgan "DMED" axborot tizimi ishlab chiqildi. Mazkur axborot tizimi respublikadagi 470 ta tibbiyot muassasasida ishga tushirilgan va ma'lumotlar bazasida 32 mln. nafar bemorning birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalaridagi ma'lumotlari elektron shakllantirilgan.

Vazir javobiga ko'ra "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi O'zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyoti va elektron hukumatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi vazifalarini belgilaydi. Ushbu strategiyani amalga oshirish uchun har ikki yilda raqamli transformatsiya dasturlari qabul qilinmoqda.

Mazkur hujjatlarda "Elektron hukumat" tizimining yangi bosqichi – "Raqamli hukumat" tizimiga o'tilib, barcha hujjat va munosabatlarning raqamli shaklda bo'lishini ta'minlash, fuqarolarning davlat xizmatlaridan foydalanishi uchun murojaat qilishida ariza yozish, turli shakllarni to'ldirish kabi ortiqcha formal tartiblarni bekor qilish, davlat idoralari zarur hujjatlarni elektron bazadan o'zi oladigan tizim yaratish, davlat xizmatlarini "3 qadam", "foydalanuvchi uchun moslashtirilgan", "barchasi bir mobil ilovada" tamoyillari asosida raqamlashtirish va boshqa qator vazifalar o'rin olgan.

Bundan tashqari, mazkur loyiha doirasida sog'liqni saqlash, ta'lim, qurilish, kommunal, qishloq va suv xo'jaligi sohasidagi barcha xizmat va jarayonlarni raqamlashtirish hamda "Raqamli hukumat" dasturi doirasida 60 dan ortiq ustuvor loyihalarni ishga tushirish nazarda tutilmoqda.

Shu yil boshidan buyon Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida 51 yangi elektron xizmat joriy etilib, ularning umumiy soni 751 taga yetgan bo'lsa, foydalanuvchilar soni 11 mln. nafardan oshgan. Qolaversa, yagona portalning mobil ilovasida 100 dan ortiq yangi elektron xizmatlar joriy qilingan holda ularning umumiy soni 565 taga yetkazilgan.

Majlisda parlament so'roviga javobda ko'rilgan masalalar bo'yicha atroflicha ma'lumotlar taqdim qilingani qayd etilib, Raqamli texnologiyalar vazirining javobi ma'lumot uchun qabul qilindi.

AGRAR SOHA TARAQQIYOTI

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI KAFOLATI

Bugungi kunda jahon hamjamiyati oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri, shubhasiz, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdir. Chunki iqlim o'zgarishi va ekologik muammolar oqibatida kuzatilayotgan ekstremal holatlar, tabiiy ofatlar, ekin yerlari va suv taqchilligi singari muammolar qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani bor gap.

Xalqaro ekspertlarning fikricha, iqlim o'zgarishi muammolariga, ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlari o'ta ta'sirchan bo'lib, o'z vaqtida choralar ko'rilmasa, bu global oziq-ovqat ta'minoti zanjirida uzilishlarga, muhim kundalik iste'mol tovarlari narxining oshib ketishiga olib kelishi mumkin. Ayni shu jihat aholisi yiliga qariyb 1 million kishiga ko'payib, nufusi saldam 38 million nafarni tashkil etayotgan O'zbekiston uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash eng muhim vazifaga aylanganini anglatadi, albatta. Shu bois so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, agrar sohada olib borilayotgan tizimli yangilanishlar markazida milliy oziq-ovqat xavfsizligi strategiyasi turibdi.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ishlab chiqilgan qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, sohani raqamlashtirish kabi dasturiy vazifalar agrar tarmoq rivojining yangi bosqichga ko'tarilishiga mustahkam zamin yaratmoqda. Natijada yurtimizda murakkab sharoitga qaramasdan, 2024 yili 9 mln. tonna don, 3 mln. tonnadan ortiq paxta, 16 mln. tonnadan ziyod sabzavot va poliz, 5 mln. tonna meva va uzum, 4 mln. tonna kartoshka, 15 mln. tonnadan ko'p go'sht va sut, 30 ming tonna pilla yetishtirildi. Bu yilgi marralar esa bundan-da balandroq qilib olingan.



Ilmga asoslangan va innovatsion yondashuv

Ochig'ini aytish kerak, global iqlim o'zgarishlari ta'siri har mavsumda har xil tusda namoyon bo'lib, qishloq xo'jaligi xodimlarini jiddiy sinovdan o'tkazmoqda. Tabiatning kutilmagan injiqliklari tufayli ekinlardan yuqori hosil ko'tarish oson kechmayapti. Masalan, bu yilgi may oyi yog'ingarchiliklar kamligi, ortiqcha issiq harorati bilan dehqonlarni tashvishga solib qo'ydi.

Shu o'rinda aytish joizki, mamlakatimizda qishloq xo'jaligini iqlim o'zgarishlariga moslashtirish, ularning salbiy ta'sirini yumshatish maqsadida Milliy dastur qabul qilingani, uning ijrosini ta'minlash hamda mahsulot yetishtiruvchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ko'rilayotgan dehqon fermerlarga katta dalda bo'lyapti. Eng asosiysi, sohada ilm-fan va innovatsiya yutuqlari keng joriy etilib, amaliyotga ilg'or agrotexnologiyalar izchil tatbiq qilinayotgani tufayli vaziyatdan oqilona chiqib ketilmoqda.

Xususan, keyingi paytda dehqonchilikda navni to'g'ri tanlashga alohida mas'uliyat bilan yondashilyapti. Bunda hosildorlik xususiyati bilan birga ekstremal ob-havo sharoitiga moslashuvchanligi, suvsizlik va kasalliklarga chidamlilikiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Paxtachilikda ana shu tamoyillar asosida xorij g'o'za navlari tanlab ekilayotgani kutilgan samarani beryapti. Hosildorlik tobora oshmoqda. G'allachilikda esa resurs tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni qo'llash natijasida o'rtacha hosildorlik soha tarixida ilk bor 85 sentnerga yetkazildi. Mazkur ko'rsatkichni 90 - 100 sentnerga yetkazgan fermer xo'jaliklari soni o'tgan mavsumda olti mingdan ortiq, bu agrar sohani sifat jihatdan rivojlantirish borasida olib borilayotgan ishlar yuksak natija berayotganidan dalolatdir.

Resurstejamkor usullar haqida gap ketganda, sabzavotchilikda qo'llanilayotgan ana shunday yangiliklarga ham to'xtalish joiz. Gap shundaki, intensiv texnologiya asosida 50 ming gektar maydonda sabzavot yetishtirilganida hosildorlik an'anaviy usulga nisbatan 200 - 250 sentnerga oshgani holda, sof daromad gektaridan 6 - 8 ming dollarni tashkil etdi. Bularning bari ichki bozorni bog' va dala ne'matlarini ta'minlash, oziq-ovqat mahsulotlari narxi oshib ketmasligini o'z ichiga oladi, eng asosiysi, eksport hajmi ortishiga xizmat qilayapti.

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga qaraganda, 2024 yilda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmatlari) hajmi 467 041,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rsatkich 2023 yildagiga nisbatan 3,1 foiz o'sgan. Bunday joriy natija, asosan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmining oshganligi, jumladan, uzum 5,4 foiz, poliz 5,1 foiz, meva 4,8 foiz, donli ekinlar 4,8 foiz, kartoshka 4,0 foiz ko'p yetishtirilgani bilan izohlanadi.

Ayni paytda O'zbekiston 180 turdan ortiq qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini 80 dan ziyod mamlakatlarga eksport qilmoqda. Birgina 2024 yil davomida qiymati 1,5 mlrd. AQSH dollarlik 2 mln. tonna meva-sabzavot, 8,9 mln. dollarlik 6,4 ming tonna qalampir, 22,3 mln. dollarlik 14,5 ming tonna yeryong'oq, 17,4 mln. dollarlik 11,2 ming tonna quritilgan o'rik eksport qilingan. Shubhasiz, bu zaminimizda yetishtirilgan noz-ne'matlarga xalqaro bozorda talab ortib borayotganini, O'zbekiston jahon oziq-ovqat bozorida o'rinni tobora mustahkamlayotganini ko'rsatadi.

Mustahkam huquqiy asos yaratildi

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi, aholi turmush darajasi va farovonligi ortishi bevosita oziq-ovqat xavfsizligi qay darajada



ta'minlanganiga bog'liq. Bunga agrar soha taraqqiyotisiz erishib bo'lmaydi. Shuning uchun qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan tizimli islohotlar olib borilib, avvalo, sohaning mustahkam huquqiy asosi yaratilyapti.

Davlatimiz rahbarining 2023 yil 11 sentyabrda Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston - 2030" strategiyasida ayni yo'nalishdagi yangi ustuvor vazifalar qamrab olingan. Ya'ni qishloq xo'jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish, paxta bo'yicha o'rtacha 45 - 50, g'alla bo'yicha 80 - 85 sentnerga yetkazish, agrar sohaga jami 15 mlrd. dollarlik investitsiya jalb qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash ko'rsatkichining 25 foizdan yuqori bo'lishini ta'minlash belgilandi. Pirovardida bir gektardan olinadigan o'rtacha daromadni 5 ming dollarga, qishloq xo'jaligi sohasida eksport qiymatini yiliga 10 mlrd. dollarga yetkazish maqsad qilingan.

E'tiborsiz, endilikda soha oldiga yangi maqsadlar qo'yilyapti. Ilgorigidek faqat yuqori hosil ko'tarish emas, balki moddiy va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish evaziga olinadigan yakuniy natijada - ko'riladigan sof foyda hajmining ortishi asosiy mezonga aylandi. Shu ma'noda, "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va yashil" iqtisodiyot yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida yuqori avlodli va xorijdan olib kelingan urug'larni ekish, intensiv texnologiyalardan foydalangan holda ekinlar parvarishini yo'lga qo'yish orqali gektarlar daromadini o'rtacha 5 ming dollarga yetkazish ko'zda tutilgani diqqatga sazovordir.

2024 yil 16 fevraldagi "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni ushbu yo'nalishdagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi, deyish mumkin. Negaki, unda oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom ovqatlanishni ta'minlash, strategik ahamiyatga ega qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari zaxiralarni yaratish, tabiiy va texnologiyalar, global siyosiy va iqtisodiy inqirozlar, pandemiyalar, harbiy amaliyot va boshqa hodisalarning salbiy ta'siri oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va boshqarish, shuningdek, xabardor qilish va monitoring platformasini yaratish strategiyaning ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi.

Joriy yilda "Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida"gi Qonun imzolangan, ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni yagona hujjatga unifikatsiya qilish va tizimlashtirish, bir so'z bilan aytganda, yagona huquqiy asos yaratildi. Mazkur hujjatga muvofiq, Qishloq xo'jaligi vazirligi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda vakolatli davlat organi sifatida belgilandi. Unga respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish, oziq-ovqat mahsulotlari va xomashyosini ishlab chiqarish bilan bog'liq faoliyatni qo'llab-quvvatlash bo'yicha takliflar tayyorlash, oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni o'rganish asosida mahsulot yetishtirish jarayonlarini takomillashtirish va rivojlantirishga doir qisqa, o'rta hamda uzoq muddatli

strategiyalarni ishlab chiqish kabi vakolatlar berildi.

Shuningdek, qonunda oziq-ovqat mahsulotlari tanqisligiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha davlat tomonidan qanday choralar ko'rilishi, oziq-ovqat balansini shakllantirish, iste'molchilar va xo'jalik yurituvchi subyektlarning oziq-ovqat xavfsizligi borasidagi huquq va majburiyatlari belgilab qo'yildi.

Xalqchil tadbir, tizimli hisob-kitob

Yurtimizda 2025 yil hosili uchun jami 4 mln. 800 ming gektarda qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirish mo'ljallangan. Shundan 2 mln. gektardan ziyodida poliz-sabzavot, kartoshka, dukkakli ekinlar joylashtirildi. Bu shunchaki reja emas, balki puxta hisob-kitob asosida qo'yilgan aniq maqsad bo'lib, ekinlarni ekish, parvarishlash va hosilini yig'ishtirib, zaxiraga jamlash kabi tadbirlar muntazam monitoring qilib boriladi. Xususan, aholiga birlamchi zarur bo'lgan 10 turdagi asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining tizimli hisob-kitobi yuritiladi. Bunda har bir tumanida qanday mahsulot yetishtirilishi, ichki bozor uchun qancha zaxira yaratilishi qamrab olinadi.

Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini



ta'minlashda nafaqat fermer xo'jaliklari yoki klaster va kooperatsiyalar kuchiga tayanilyapti, balki dehqon va tomorqa xo'jaliklariga keng imkoniyatlar berilyapti. Bu bejiz emas, albatta. Chunki ular iste'mol ne'matlarini yetkazib berishda yetakchiga aylangan. Xo'jalik toifalari bo'yicha taahhul bugungi kunda qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 63,1 foizi aynan dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chindan ham, Prezidentimiz tashabbusi bilan 260 ming gektar yer 800 ming aholiga dehqonchilik qilish uchun bo'lib berilgan edi. Shuningdek, Sayxunobod tajribasi asosida tomorqalarda mahsulot yetishtirish tashkiliy-moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu bir tomondan odamlarni, ayniqsa, yoshlarni ish o'rni va daromad bilan ta'minlashda qo'l kelayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ko'p yetishtirilib, ularning narxini barqaror ushlab turishda muhim omilga aylandi. Shu bois Sirdaryo viloyatining Sayxunobod tumanida to'plangan tajriba butun mamlakatimizga keng joriy etildi.

Ilgari Sayxunoboddagi mahallalarning ko'plab xonadonlari sohiblari o'z tomorqasining bo'sh turmasligi uchun makkajo'xori yoki beda ekib, ro'zg'or uchun kerakli bo'lgan poliz, sabzavot mahsulotlari va meva-cheva uchun bozorga yugurishardi. Yurtboshimiz tashabbusi bilan har bir xonadonda tabiiy istiladigan kichik issiqxonalar barpo etish yo'lga qo'yilgach, tomorqa egalari o'zlarining kundalik iste'mol mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojni o'zlarini qondirib, bozorga ertagi pomidor, bodring,

bulg'or qalampir, baqlajon kabi ne'matlarini chiqara boshladi. O'tgan yili tumaning o'zida aholi tomorqasida yetishtirilgan 28 ming tonna sabzavot va poliz mahsulotlari ichki iste'mol uchun sotilgan bo'lsa, 8 ming tonnasi eksportga yo'naltirildi. Shu raqamning o'ziyiq Sayxunobod tajribasi istiqbolli porloq ekanini amalda ko'rsatdi.

Yurtimizda tomorqachilik har bir hududning tuproq-iqlim sharoiti va tabiiy imkoniyatlari inobatga olingan holda muayyan yo'nalishda rivojlantirilyapti. Natijada 5145 ta mahalla "Bir mahalla - bir mahsulot" tamoyili asosida bir tomorqa ixtisoslashtirildi. Shuningdek, dehqon xo'jaliklarini tashkil etish uchun 75 ming gektar yer maydonlari 180 ming nafardan ziyod ijtimoiy muhojir aholi hamda yoshlarga bo'lib berilgan, 200 mingdan ortiq ish o'rinlari yaratilgan qishloqda bandlikni ta'minlash, real daromadlarni oshirish, kambag'allikni qisqartirishda muhim rol o'ynamoqda.

Bundan tashqari, chorva naslini yaxshilash va mahsulot hajmini ko'paytirish uchun aholiga 40 ming bosh qoramol, 82 mingta qo'y va echki yetkazib berildi, chetdan 260 ming bosh zotdor mol olib kelindi. Bularning bari ichki bozorni sifatli arzon mahsulotlar bilan to'ldirish, aholining

Shu bois talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lash maqsadida dual ta'lim tizimi qo'llanilmoqda. Ayni paytda Agrosanoatni rivojlantirish agentligi, O'rmon xo'jaligi agentligi, "Leo Garden", "Agro Light Business", "Multi Flora", "PROMEAT" MCHJ, "Safia Cafe & Bakery" kabi respublikamizdagi 26 ta yirik tashkilot va korxonalar bilan dual ta'lim tashkil etildi. Bu kabi sa'y-harakatlar samarasi o'laroq, 2025 yilda 187 nafar talaba Polsha, Germaniya, Bolgariya kabi mamlakatlarga qisqa muddatli haq to'lanadigan o'quv amaliyotlarga yuborildi. Ushbu yo'nalishdagi aloqalarni yanada kengaytirish uchun yaqinda Xitoy, Gretsiya, Vengriya va Xorvatiyada talabalar amaliyotini tashkil etish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Xalqaro hamkorlik doirasida nafaqat talabalar, balki universitet professor-o'qituvchilari ham xorijda tajriba oshirib kelayotgani quvonarli. Birgina 2025 yilning yanvar - may oylarida 50 dan ortiq professor-o'qituvchilar Polsha, Turkiya, Malayziya, Janubiy Koreya, XRR va Rossiya Federatsiyasining nufuzli oliy ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot tashkilotlariga malaka oshirish va stajirovkalarga yuborildi. O'z navbatida, Germaniya, Polsha, Turkiya, Malayziya, Janubiy Koreya, Xitoy va

Jamoamiz ilmiy salohiyati yil sayin yuksalib borayotganini birgina ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish holati misolida ham yaqqol ko'rish mumkin. Ya'ni professor-o'qituvchilar erishilgan ilmiy yutuqlar, yaratilgan innovatsion texnologiyalar, ishlanma va ixtirolar asosida agroklasterlar, fermer xo'jaliklari, shuningdek, ishlab chiqarish korxonalariga ko'rsatilgan xizmatlar evaziga 2024 yilda universitetning Tijoratlashtirish jam'armasiga 3,5 mlrd. so'm mablag' tushgan bo'lsa, joriy yilda ushbu ko'rsatkichni 10 mlrd. so'mdan oshirish ko'zda tutilgan.

Tabiiyki, bunday yutuqlar qo'lga kiritilishida ilmiy izlanuvchilar uchun zamonaviy jihozlangan laboratoriyalar, tajriba maydonlari mavjudligi qo'l kelyapti, albatta. Hozirgi kunda davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida 5 ta amaliy loyihaga va 130 ga yaqin ilmiy tadqiqotlar universitetning o'quv-ilmiy tajriba xo'jaligida olib borilmoqda.

So'nggi yillarda bu yerda o'tkazilgan ilmiy izlanishlar doirasida 50 dan ortiq ixtirolarga patentlar olindi. Shu jumladan, yuqori hosilli, turli iqlim sharoitiga moslashgan g'alla, g'o'za, meva-sabzavot ekinlarining yangi navlari yaratildi va istiqbolli xorij navlari mahalliy tuproq-iqlim sharoitiga moslashtirildi. Masalan, joriy yilda Xitoy Shimoli-g'arbiy qishloq va o'rmon xo'jaligi universiteti bilan hamkorlikda Xitoyda yaratilgan olmaning uchta navni introduksiya qilindi va olma bog'lari barpo etildi. Xitoylik mutaxassislar bilan hamkorlikda ushbu navlar yurtimiz tuproq-iqlim sharoitiga moslashishini o'rganish va ularni parvarishlashning zamonaviy texnologiyasi ishlab chiqilmoqda. Yangi olma navlari hosildorligi, tashishga yaroqliligi, uzoq vaqt saqlanuvchanligidan tashqari mevasining sifat ko'rsatkichlari yuqorigi bilan boshqa navlardan ajralib turadi. Ushbu bog' to'liq hosilga kirganda va agrotexnika tadbirlari o'z vaqtida sifatli amalga oshirilganda har tupdan 25 - 30 kilodan, bir gektardan esa o'rtacha 60 - 70 tonnagacha hosil olinadi.

Xuddi shunday, yangi barpo qilingan anjir bog'i himda issiqxonalarda sitrus mevali o'simliklari kolleksiyasi tashkil etilib, ko'chat yetishtirish yo'lga qo'yilgan. Polshalik hamkorlar bilan yangi turdagi rezavor mevali o'simliklari - quplunay, malina, g'olubika va yejeverika kolleksiyasi yaratilmoqda. Bundan tashqari, talab yuqori bo'lgan mahsulotlar, sakkiz turdagi karam, gulqaram, brokkoli va salat bargi, shuningdek, sabzi, piyoz va kartoshkaning serhosil navlarini yetishtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilyapti.

O'quv-ilmiy tajriba xo'jaligida iqlim o'zgarishlariga moslashish, ayniqsa, sho'rliqan yerlarda ekin yetishtirish ustida tadqiqotlar olib borilayotganini alohida e'tirof etish joiz. Ayni paytda Sho'rliqan sharoitida Biodehqonchilik xalqaro markazi (ICBA - International Center for Biosaline Agriculture) bilan hamkorlikda degradatsiyaga uchragan yerlarda amarant va kinoa o'simliklarini yetishtirish bo'yicha tajribalar o'tkazilmoqda. Bu ekinlar qurg'oqchilik va issiqlikka chidamli bo'lib, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda yangi imkoniyatlar eishigini ochishi turgan gap. Shuning uchun universitet olimlari tomonidan bu kabi ilmiy tadqiqot va texnik ishlanmalarni amaliyotga joriy etish, ular asosida ishlab chiqilgan tavsiyalarni keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida muntazam dala seminarlari, agrofestivallar tashkil etilmoqda.

Bugun dunyo oziq-ovqat xavfsizligini milliy xavfsizlikning ajralmas qismi sifatida ko'rmoqda. Toshkent davlat agrar universiteti ilmiy-pedagogik jamoasi O'zbekistonda ayni shu yo'nalishda olib borilayotgan shiddatli islohotlarga kamrabasta bo'lishga, qishloq xo'jaligi sohasining innovatsion rivojiga xizmat qiladigan intensiv agrotexnologiyalar, zamonaviy ishlanmalar, ilmiy ixtirolar yaratishga intilmoqda. Zero, agrar sohaning ilm-fan yutuqlari asosida taraqqiy etishi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning kafolatidir.

Narzullo OBLMURADOV,
Toshkent davlat agrar universiteti rektori,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ishlab chiqilgan qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, sohani raqamlashtirish kabi dasturiy vazifalar agrar tarmoq rivojining yangi bosqichga ko'tarilishiga mustahkam zamin yaratmoqda. Natijada yurtimizda murakkab sharoitga qaramasdan, 2024 yili 9 mln. tonna don, 3 mln. tonnadan ortiq paxta, 16 mln. tonnadan ziyod sabzavot va poliz, 5 mln. tonna meva va uzum, 4 mln. tonna kartoshka, 15 mln. tonnadan ko'p go'sht va sut, 30 ming tonna pilla yetishtirildi. Bu yilgi marralar esa bundan-da balandroq qilib olingan.

xarid qobiliyati va iste'mol sifatini oshirishda ayni muddao bo'lyapti.

Xalqaro maydondagi nufuz ortdi

Agar soha tubdan o'zgarib, mahsulot yetkazib berishning "Daladan - dasturxonagacha" zanjiri uzviyligi ta'minlanishida ilm-fan yutuqlari hamda innovatsiyaga asoslangan zamonaviy boshqaruv g'oyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Natijada O'zbekiston meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish bo'yicha Markaziy Osiyoda yetakchi davlatga aylandi. Ushbu jarayonda Toshkent davlat agrar universitetining novatorlik rolini alohida e'tirof etish joiz. Chunki bu yerda bugungi zamon talablariga to'la javob beradigan raqobatdosh kadrlar tayyorlash uchun o'quv jarayoniga jahonning eng ilg'or tajribalari tatbiq qilyapti. Bunda, avvalo, ta'lim sifatini yaxshilashga ustuvor ahamiyat berilayotgani e'tiborga molikdir. Natijada 2024/2025 o'quv yilida 32 ta ta'lim yo'nalishi va 47 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha 500 dan ortiq o'quv dasturlari (sillabus) "TOP - 300" talik OTM dasturlariga moslashtirildi. Xitoy, Polsha, Rossiya, Turkiya va Vengriya davlatlari universitetlari bilan beshta bakalavr ta'lim yo'nalishi, to'rtta magistratura mutaxassisligi bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlari joriy etildi.

Shu bilan birga, oxirgi ikki yilda Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) hamda "ASIN" xalqaro agentligi bilan hamkorlikda to'rtta ta'lim yo'nalishi xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazildi. Bu esa ta'lim dasturlarimizning xalqaro darajada tan olinishi, universitetning jahon maydonidagi nufuzi ortayotganidan dalolat beradi.

Dunyoviy tajribadan ma'lumki, oliy ta'limda nazariya amaliyot bilan uyg'unlashsa, samaradorlik yanada oshadi.

YANGILIKLAR xabarlar
TAFSILOTLAR

Chimmosda «IT-shaharcha» faoliyati yo'lga qo'yildi



Bugungi hayotimizni raqamli texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu bois sohani yanada rivojlantirish maqsad qilingan. Prezidentimizning tegishli qaroriga muvofiq, har bir viloyatda "IT-shaharcha"lar faoliyatini samarali tashkil etish belgilangan.

Samarqand viloyatidan Qo'shrabot tumanining olis "Chimmos" mahalla fuqarolar yig'ini tanlab olinib, 35 sotix bo'sh va foydalanilmay yotgan yer maydonida "IT-shaharcha" barpo qilindi. Uning rasmiy ochilish marosimida Raqamli texnologiyalar vazirligi, Samarqand viloyati va Qo'shrabot tumani hokimligi vakillari, mahalla faollari hamda yoshlar ishtirok etdi.

Ta'kidlash joizki, ushbu "IT-shaharcha"da yiliga ming nafarga yaqin yoshlar dasturlash, dizayn graffikasi, kompyuter savodxonligi kabi sohalarda chuqur bilim olish, xorijiy tillarni bepul o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Abdulaziz YO'LDOSHEV («Xalq so'zi»).

O'yingoh zamonaviy qiyofada



Kogon shahridagi "Lokomotiv" o'yingohi 1967 yilda barpo etilgan. Vaqt o'tishi bilan u ta'mirlalab holga tushdi. Vaholanki, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishi, sportning u yoki bu turi bilan professional darajada shug'ullanishi uchun mazkur inshoot juda kerak.


Buxoro viloyati hokimligi tomonidan "Lokomotiv" o'yingohidagi eski binolar o'rni yangi, zamonaviy qulayliklarga ega inshoot barpo etish maqsadida 3,5 mlrd. so'm miqdoridagi mablag' yo'naltirildi. Natijada 3,5 ming tomoshabin o'rni mo'ljallangan ikki qavatli minbar qad rostlandi. Maydon holati yaxshilanib, infratuzilma o'zgartirildi. Qisqacha aytganda, o'yingoh chinakamiga "yoshardi".

Kogon shahri sport sohasida boy an'analariga ega, deydi mehnat faxriysi I. Hojiyev. "O'z vaqtida bu go'shadan ko'plab taniqli sportchilar yetishib chiqqan. Shu nuqtai nazaridan, "Lokomotiv" o'yingohining tubdan rekonstruksiya qilingani shahrimiz aholisi, ayniqsa, sportsevar yoshlarni behad xursand qildi.

O'yingohning foydalanishiga topshirilishi munosabati bilan o'tkazilgan marosimda sportchi o'g'il-qizlar o'z mahoratini namoyish etdi. Tadbir dasturidan o'rin olgan kuy-qo'shiqlar barchaga bayramona kayfiyat bag'ishlandi.

Istam IBROHIMOV («Xalq so'zi»).

«Gilos sayli» festivali



Quva agroturizmni rivojlantirishda qulay hudud bo'lib, tuman bog'larida yetishtirilayotgan gilos, anor, o'rik, shaftoli, xurmo, qulupnay yurtimiz bozorlari, xorijda ham xaridorgir hisoblanadi. Bu boradagi imkoniyatlar ko'lamini oshirish maqsadida "Karkidon" suv ombori hududida "Gilos sayli" festivali o'tkazildi.

Tadbir doirasida Farg'ona viloyatida intensiv bog'lar yaratish orqali eksport imkoniyatlarini oshirish bo'yicha muloqotlar bo'lib o'tdi. O'z navbatida, agrosanoat sohasini rivojlantirish, tarmoqda aholi bandligini ta'minlash va daromadini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar yuzasidan amaliy seminar ham tashkil etildi.

O'tgan yili tumanida 80,4 mln. dollarlik meva-sabzavot mahsulotlari eksport qilinib, uning 37 mln. dollarlik qismini gilos tashkil etdi, deydi Quva tumani hokimi Halimjon Umarov. "Joriy yil may oyi holatiga ko'ra, 13 ming tonna gilos eksport qilinishiga erishildi.

Botir MADIYOROV («Xalq so'zi»).

YOZGI TA'TIL MAZMUNLI, SAMARALI BO'LSIN

Afsuski, bu shunchaki vahima emas, kiberjinoiyatlik xuruj bilan yuzaga kelgan real xavf-xatar. Bilasiz, yurtimizda internet kirib bormagan uy qolmagan, har bir xonadonda, hatto kam ta'minlangan oilada ham televizor va telefon bor. Ma'lumotlarga qaraganda, 2017 - 2025 yillarda internet foydalanuvchilari soni 14,7 milliondan 32,7 millionga yetib, ikki barobardan oshiqqa ko'paygan. Kundalik hayotimizning o'zi ham buni yaqqol namoyon etib turibdi.

Vaqting ketdi - naqing ketdi

Uzoqqa bormaylik, aksariyat hollarda ota-onalar ertalabdan kechgacha ishda. Internetning ko'zga ko'rinmas uzun "panjalari" esa kattayu kichikning ongiga o'z ta'sirini o'tkazish harakatida. Hali g'o'r, ongu shuuri yetarlicha shakllanmagan bolalar esa axborot makonining xatari jihatlaridan bexabar, ularda global tarmoqning hujumiga bardosh beradigan ruhiy yoinki makuraviy immunitet yetarli emas. Kam telefon yoki televizorga tikilib, sayivasi past rolliklari tomosha qilish, kompyuter o'yinida kuch sinashish, maza-bemaza kliplarga mahiylolik bilan o'tmasligiga kafolat yo'q.

Eskidan bir gap bor: "Do'sting kimligini ayt va men kimligini aytaman". Hayotiy tajribamiz oshgani sayin bu hikmatning haqiqatga nechog'li yaqin ekaniga hammamiz guvoh bo'lmoqdamiz. Shunga qaramay, hozirgi global raqamlashtirish asrida bu iqtibosni biron o'zgartirgan bo'lardik: "Vaqtning qanday o'tayotganini ayt va men kimligini aytaman".

Ushbu jihatlarni e'tiborga olgan holda, yurtimizdagi har bir bolaning bo'sh vaqti mazmunli o'tishi haqida qayg'urish biz, kattalar uchun ham qarz, ham farzga aylangan. Bu vazifa tarbiya jarayonining muhim bir qismiga aylangan bo'lib, ma'rifatparvar olim Abdulla Avloniy aytganidek, yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasi.

Bugina emas. Yoz pallasi yil bo'yi o'qish bilan band bo'lgan bolaning sog'ligini tiklash uchun qulay payt sanaladi. Bo'sh vaqt ko'p, shu fursatda bolani tibbiy ko'riqdan o'tkazish, kasallik bo'lsa, aniqlab davolash, yosh organizmning uyg'un rivojlanib, kuch-quvvatga to'lishi haqida g'amxo'rlik ko'rsatishning ayni vaqti. Uni turlari ko'ngilochar tadbirlarga olib borish, sport, o'zi qiziqqan sohalardagi to'garaklarda shug'ullanishi uchun sharoit yaratish ham jismonan, ham ruhan salomatligi uchun kuni foyda.

Eng maqbul, bolaning bo'sh vaqtini samarali tashkil etishni o'z ishini ustalariga topshirish kerak. Buning uchun yurtimizda barcha sharoit mavjud. Yozgi ta'til davrida deyarli har bir tuman, shaharda sport seksiyalari, to'garaklar ishlaydi, maktablar qoshida kunduzgi oromgohlar, bahavo maskanlarda bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari tashkil etiladi.

Hych bir bola e'tibordan chetda qolmasin

Joriy yilning 15 may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish, to'g'ri tarbiyalash, zararli ta'sirlardan asrash dolzarb masalalaridan ekaniga alohida urg'u berildi. Bolalarni zararli axborotlardan himoya qilish hammani o'yantirayotgan muammo ekanligi ta'kidlanib, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzurida Prezident qaroriga muvofiq, Bolalar kontentini rivojlantirish markazi tashkil qilinishiga e'tibor qaratildi.

Shuningdek, yig'ilishda yozgi ta'tilga chiqqan yoshlarni oromgohlar va foydal mashg'ulotlarga jalb etish, sport musobaqalari, intellektual o'yinlar va san'at kechalari o'tkazish bo'yicha vazifalar belgilandi. Jumladan, yoz oylarida yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish maqsadida e'tibor qaratildi.

Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan bu masalaga ham e'tibor kuchaytirildi. Bolalar sog'lig'ini mustahkamlash, ularning jismoniy, ruhiy, intellektual va ijodiy salohiyatini yuksaltirish ishlari yangi sifat bosqichiga olib chiqildi. Masalan, faoliyat yuritmay qo'yg'an yoki samarasiz ishlayotgan bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarining faoliyatini o'nglash maqsadida 189 tasi O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tasarrufiga o'tkazildi. Natijada oromgohlarga jalb etiladigan bolalar salmog'i ko'paytirilib, xizmatlari sifatini yaxshilandi. 2024 yil 29 maydagi "Bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarida dam oladigan bolalar qamrovini kengaytirishga qaratilgan

va sayilgohlarda har kuni konsert hamda musiqa kechalari o'tkazish, madaniyat va istirohat bog'larida san'at ko'rgazmalari, she'riyat kechalari va intellektual o'yinlar tashkil etish, poytaxtdagi "Yangi O'zbekiston" bog'i va parklarda har kuni ochiq osmon ostida konsertlar uyushtirish topshirildi. Bu ishlar sport sohasida ham tashkil qilinib, 6 million yoshlarni qamrab olishga ko'rsatma berildi.

Yozgi oromgohlarda yoshlar "Ibrat farzandlari", "Qizlar akademiyasi", "Mutolaa" loyihalari bilan qamrab olinishi, 100 ming o'quvchi uchun maktablarda kunduzgi oromgohlar faoliyati yo'lga qo'yilishi, "Zakovat" intellektual o'yinining maktab ligasi tashkil etilishi belgilandi. Bundan tashqari, "Raqamli avlod" loyihasi doirasida kamida 50 ming yoshni o'qitib, IT va kibersport turnirlari, "Raqamli avlod qizlari" loyihasi bo'yicha tuman hamda viloyat tanlovlari o'tkazish rejalashtirildi.

150 dan ortiq sun'iy va barcha tabiiy suv havzalardan samarali foydalanish, bunda yoshlarning xavfsizligini ta'minlash vazifasiga e'tibor qaratildi. "Yoshlar turizmi oyiligi" o'tkazilib, 1 mln. yoshlar uchun muzey va tarixiy obidalariga ekskursiyalar tashkil qilinadi.

Oromgohda hikmat ko'p

Ta'tildagi o'quvchi bolalarning boshqa toifasi ham bor. Ularning ota-onalari alohida g'amxo'rlik ko'rsatib, yozning issiq chillasida farzandlarini oromgohlarga yuborishadi, chunki ular bola sog'ligini tiklash, bo'sh vaqtini samarali o'tkazishda oromgohning afzalliklarini teran anglashadi.

Mutaxassislarining aytishicha, bolalarning samarali dam olishi va kuch to'plashi uchun kattalarga nisbatan ko'proq vaqt talab qilinadi. Bu yosh organizmning faol o'sishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, unga katta miqdorda energiya talab qilinadi. Sifatli dam olishning yetishmasligi esa bolaning jismoniy va ruhiy sog'ligiga, o'qish qobiliyatiga va umumiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bolalar oromgohlarida bola parvarishi aynan shu mezonlar nazarda tutilgan holda samarali tashkil etiladi: uning to'g'ri ovqatlanishi, miringib uxlashi, sog'ligi uchun foydali tibbiy, tabiiy va boshqa turdagi muolajalarni olishi, hunar o'rganishi, sport bilan

Joriy mavsumda ham bolalarning sog'lomlashtirilishi va dam olishini ta'minlash uchun keng ko'lami ishlar bajarildi. Xususan, yoz mavsumi davomida mamlakatimiz miqyosida 1 428 ta oromgohda 327 ming 354 nafar o'g'il-qizni sog'lomlashtirish rejalashtirilgan. Mazkur oromgohlarning 189 tasi stasionar turdagi oromgohlar bo'lib, ushbu maskanlarda 158 780 nafar bolajon sog'lomlashtirildi, shu jumladan, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tizimidagi 81 stasionar turdagi oromgohda 76 655 nafar o'g'il-qizning mazmunli dam olishi ta'minlanadi. Shuningdek, maktablar qoshidagi 1 239 ta kunduzgi oromgohda esa 168 ming 574 nafar bola dam oldirildi.



chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori bu boradagi sa'y-harakatlar ko'lamini yanada oshirdi. Sog'lomlashtirish tizimi tubdan takomillashtirilib, bolalarning bo'sh vaqtini sermazmun o'tkazish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash imkoniyatlari oshirildi.

G'amxo'rlik amaliy ishlarda aks etmoqda

Joriy mavsumda ham bolalarning sog'lomlashtirilishi va dam olishini ta'minlash uchun keng ko'lami ishlar bajarildi. Xususan, yoz mavsumi davomida mamlakatimiz miqyosida 1 428 ta oromgohda 327 ming 354 nafar o'g'il-qizni sog'lomlashtirish rejalashtirilgan. Mazkur oromgohlarning 189 tasi stasionar turdagi oromgohlar bo'lib, ushbu maskanlarda 158 780 nafar bolajon sog'lomlashtirildi, shu jumladan, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tizimidagi 81 stasionar turdagi oromgohda 76 655 nafar o'g'il-qizning mazmunli dam olishi ta'minlanadi. Shuningdek, maktablar qoshidagi 1 239 ta kunduzgi oromgohda esa 168 ming 574 nafar bola dam oldirildi.

Ochig'i, ushbu dam olish maskanlarini mavsumga tayyorlash ishlari ancha avval boshlab yuborilgan. Masalan, O'zbekiston

zizmat ko'rsatish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va sport musobaqalarini o'tkazish, jamoat tartibini saqlash, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, yong'in takomillashtirilib, bolalarning bo'sh vaqtini sermazmun o'tkazish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash imkoniyatlari oshirildi.

ham ijobiy ta'sir o'tkazgan. Endilikda yo'llanma olish uchun idorama-idora sarson bo'lib yurishga hojat yo'q. Har birimiz farzandimiz uchun istalgan oromgohga hych bir qiyinchiliksiz, hatto uydun turib ham yo'llanma xarid qilsak bo'ladi. Muhimi, fursatni boy bermaslik, chunki mavsum allaqachon boshlangan, talabgorlar soni esa oshdangan oshib boryapti.

Hozirgi kunda yo'llanmalar yuridik va jismoniy shaxslarga "Oromgohlar.uz" elektron platformasi orqali onlayn sotilmoqda. Buning uchun veb-sahifaga kirib, undagi aktual narxlar, bo'sh o'rinlar, yashash sharoitlari va mavsum dasturlari haqida to'liq ma'lumot topsa bo'ladi. To'lovni "Click" va "Payme" orqali amalga oshirish mumkin. Mabodo bo'sh o'rinlar mavjud bo'lmasa, kutish ro'yxatida ariza qoldirish so'raladi. Imkoniyat paydo bo'lishi bilan tegishli xabar siz ko'rsatgan telefon raqami yoki elektron pochtaga avtomatik ravishda yuboriladi.

Bundan tashqari, bolalar sog'lomlashtirish oromgohlariga yo'llanmalari Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ham sotib olish mumkin. Buning uchun ariza beruvchi elektron tartibda bo'yxatdan o'tib, oromgohdagi bo'sh smenani tanlagan holda so'rovnomma yuboradi. To'lov to'liq amalga oshirilishi bilan yo'llanma rasmiylashtiriladi. Biroq to'lov 30 daqiqada ichida to'liq amalga oshirilmasa, band qilingan yo'llanma avtomatik tarzda bekor qilinadi. Ta'kidlash o'riniyki, mamlakatimizdagi korxonalar, tashkilot va muassasalarda faoliyat yuritayotgan mehnatkashlarning farzandlari uchun bolalar sog'lomlashtirish oromgohlariga yo'llanmalar ulab ishlab turgan korxonalar kasaba uyushma qo'mitasi orqali imtiyozli narxlarda berilishi yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga, "temir daftar", "ayollar daftar" va "yoshlar daftar"dan biriga kiritilgan fuqarolarning farzandlariga, Orolbo'y bolajonlariga ham alohida e'tibor qaratilib, ularni imtiyozli yo'llanmalar asosida sog'lomlashtirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Ota-onalar oromgohning ekslyuziv ta'limiy yoki sport yo'nalishlari bo'lgan turlariga chora-tadbirlar berilishi mumkin. Agar farzandingiz fanga qiziqsa, "Yosh astronom" yoki "Beruniy" kabi mavzuli oromgohlarni ko'rib chiqishingiz mumkin. "Geolog", "Sohil", "Ugam" kabi oromgohlar zamonaviy sharoitlar va rivojlangan infratuzilmani taklif etadi. Mashhur yo'nalishlar, ya'ni "Anor", "Chotqol", "Sirdaryo" va boshqalarda dam olishni oldindan rejalashtirish tavsiya etiladi. Eng muhimi, har bir oromgohda tibbiyot xodimlari, barcha xavfsizlik choralarini ko'rgan holda doimiy qo'riqlash xizmatini, malakali xodimlar faoliyatini, tegishli xizmatlarning doimiy navbatchiligi yo'lga qo'yilgan.

Joriy yilda ham an'anaga ko'ra yozgi sog'lomlashtirish mavsumi 1 iyundan boshlandi va qator oromgohlar o'z faoliyatini boshladi. Xususan, 3 iyun holatiga mamlakatimiz miqyosida 56 ta stasionar turdagi bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari o'g'il-qizlarni o'z quchog'iga oldi. Ayni kunda mazkur oromgohlarda jami 7 764 nafar bola sog'lomlashtirilmogda. Shu jumladan, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tasarrufiga jami 81 oromgohdan 22 tasi o'z ishini boshlagan bo'lib, ularda 3 340 nafar bola sog'lomlashtirilmogda. Bundan tashqari, respublikamiz bo'yicha 344 ta kunduzgi oromgohga 24 ming 900 nafar o'g'il-qiz qamrab olinadi.

Yo'llanma kimlarga beriladi?

Oromgohlardagi bu sharoitlarga havas qilgan har bir gazerxonada, tabiiyki, savol tug'iladi: bu oromgohlarga o'z farzandlarini yuborsa bo'ladi?

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan joriy etilgan ochiqlik, shaffoflik, teng huquqlik mezonlari ushbu sohaga

Asosiysi, tanlov sizdan aziz ota-onalar! Muhimi, farzandingizga bee'tibor bo'limgan, ularning kamol topishi uchun yurtimizda yaratilayotgan qulay sharoitlardan, keng imkoniyatlardan samarali foydalaning. Bundan nafaqat siz va bolangiz, balki jamiyatimiz, qolaversa, davlatimiz ham manfaatdor ekanini teran his qiling.

Guilbahor TANGIROVA («Xalq so'zi»), Muhabbat O'RMONBEKOVA, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Matbuot xizmati rahbari.

TA'LIM SIFATI:

ISLOHOTLARNING NAVBATDAGI BOSQICHI

Bugungi global o'zgarishlar sharoitida ta'lim tizimi taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, har qanday rivojlangan davlat erishgan natijalar zamirida, avvalo, ilm-fan yutuqlari yotadi. Ta'lim sifatining yuqori bo'lishi malakali kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi, mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga turki beradi. Sifatli ta'lim jamiyatda ongli va faol fuqarolarni shakllantiradi, bu davlat barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyoti uchun o'ta muhimdir.

Farmon mohiyati

Davlatimiz rahbarining shu yil 5 maydagi "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni ta'lim sohasidagi islohotlarning hozirgi bosqichida yangi ustuvor vazifalar va ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha muhim mexanizmlarni belgilab bergani bilan ahamiyatlidir. Prezidentimiz tashabbusi bilan ta'lim tashkilotlarida o'quv va ilmiy tadqiqot jarayonlarini xalqaro standartlar asosida baholash tizimini joriy etish hamda kadrlar tayyorlashga muhim qadam qo'yildi. Islohotlarning ushbu bosqichida ta'lim sifatini tashqi baholashga va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga alohida urg'u berilmoqda.

Farmonda ta'lim sifatini tashqi baholash va ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning zamonaviy tendensiyalariga asoslangan mexanizmlarni belgilab berildi. Ular ta'lim muassasalari faoliyatini xolis va mustaqil ravishda tahlil etishga xizmat qiladi. Bu jarayon orqali kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish, shuningdek, jamoatchilik va davlatning ishonchini oshirishga erishiladi.

Tashqi baholash ta'limda shaffoflik, javobgarlik va raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Shu bois "Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisi negizida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzurida Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi tashkil etildi. Ushbu agentlik o'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning uqovini oshirish, malakalarni baholash sohaslarida tashqi sifati nazoratini olib boruvchi maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi. Ayni vaqtda ta'lim muassasalari uchun bunday tuzilma ehtiyoj mavjud edi. Chunki uzluksiz ta'limning barcha bosqichidagi o'quv jarayonlarini xolis baholaydigan mustaqil tuzilmaning mavjud bo'lishi har jihatdan adolatli va samarali tizimni shakllantiradi.

Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligiga berilgan bir qator vakolatlarning ahamiyati va dolzarbligini ko'rsatib turibdi. Masalan, idoraviy mansubligi va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, o'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish ta'lim tashkilotlari maqsad va vazifalarini to'laqonli bajarishini,

ta'lim sifatini baholash va nazorat qilish orqali ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlaydi, talabalar, ota-onalar va jamiyatning ularga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Shuningdek, mazkur agentlik ta'lim tashkilotini murojaatlar, so'rovnoma asosida aniqlangan kamchiliklar, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar materiallari va boshqa ishonchli ma'lumotlar asosida navbatdan tashqari o'rganadi. Bunday vakolat ta'lim tizimi bo'yicha jamoatchilik fikrini ifodalashga, mavjud muammolar va yuzaga kelgan murakkabliklarni bartaraf etishga, raqobatli kadrlar tayyorlash jarayoniga ko'maklashishga imkon beradi. Boshqa sohalar kabi ta'lim tizimi ham uning ishtirokchilari, aholining keng vakillari fikrlari va takliflarini inobatga olishi, zamonaviy tendensiyalarga mos bo'lishi zarur.

Agentlikka o'quvchi va talabalarining fikrlarini o'rganishga qaratilgan umummilliy so'rovnoma o'tkazish vakolati ham berildi. Bunday amaliyot ta'lim tizimi uchun ilk bora qo'llaniladi. Shu vaqtga qadar so'rovnomalar muayyan ta'lim tashkilotlari kesimida o'tkazilgan va tahlil qilingan bo'lishi mumkin, lekin umummilliy masala sifatida respublika miqyosida o'quvchi va talabalar ishtirokida o'tkazilmagan. Umummilliy talabalar so'rovnomasi ta'lim tashkilotlarining qanday kadr tayyorlayotganligini baholash uchun samarali tizimga aylanishi, shubhasiz.

Aytish lozimki, bunday so'rovnomalar o'tkazish rivojlangan davlatlar tajribasida keng qo'llaniladi. Masalan, umummilliy talabalar so'rovnomasi (National Student Survey) Buyuk Britaniyada 2005 yildan beri har yili yanvar - aprel oylarida o'tkazib kelinadi. So'rovnomada Angliya, Uels, Shimoliy Irlandiya va Shotlandiyadagi davlat byudjeti tomonidan moliyalashtiriladigan barcha oliy ta'lim muassasalari ishtirok etadi. Unda har yili qariyb yarim million talaba qatnashadi. Shu asosda oliygohlar, kollejlari va talabalar uyushmalari faoliyatining ijobiy va salbiy tomonlari aniqlanadi. Bu so'rovnoma Buyuk Britaniya oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim sifatini o'lchaydigan asosiy vosita bo'lib, u bozor talablariga mos malakaga ega kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bu Britaniya oliy ta'limining jahon miqyosida raqobatbardosh bo'lishi hamda yuqori darajali imijini saqlab qolishida ham muhim omil bo'lganini inkor qilib bo'lmaydi.

Umummilliy talabalar so'rovini joriy etish mamlakatimiz oliy ta'lim sektori uchun noyob tajriba bo'lishi mumkin. Chunki u tizimning kuchli va zaif tomonlari haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim qiladi hamda oliy o'quv sifatini takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi. Qolaversa, bu mexanizm nafaqat oliygohlar, balki umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim uchun ham samara beradi. Uzluksiz ta'limning barcha bosqichidagi o'quv sifatini baholashning zamonaviy usullaridan



keyingi ta'limda 40 foiz izlanuvchilar maqbullashtirilgan kunduzgi ta'lim asosida o'qishadi.

“Axborot-texnologiyalaridan samarali foydalanishda ham masofaviy ta'lim qulay hisoblanadi. Videodarslar, onlayn testlar, virtual forumlar va elektron darsliklardan foydalanish asosida ta'lim beriladi. Talaba materiallarni qayta-qayta ko'rib chiqishi mumkin, bu o'zlashtirish darajasini oshiradi. Bundan tashqari, masofaviy ta'limda talabalarning transport, turarjoi yoki kundalik xarajatlarini deyarli bo'lmaydi.”

keyingi ta'limda 40 foiz izlanuvchilar maqbullashtirilgan kunduzgi ta'lim asosida o'qishadi.

Uning qulayligi talabaning ish yoki oila majburiyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmasligida. Ya'ni "part-time education" shaklida ta'lim oluvchilar ishlab, oila parvarishi yoki boshqa majburiyatlarini ham o'quv bilan birga olib borishi mumkin. Shu bilan bir qatorda, moliyaviy jihatdan birmuncha yengillik, ya'ni talabaga o'rtiqcha qiyinchiliksiz ta'lim xarajatlarini qoplash imkonini beradi. "Part-time education"da talabalar ko'p hollarda ish joyida amaliy tajriba oltiradi. O'rganilayotgan nazariy bilimlar amaliyot bilan uyg'unlashtiriladi.

Xususan, yangi o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim tashkilotlarining muqobil ta'lim shakllari bo'yicha umumiy qabul kvotasini kunduzgi ta'lim shakli qabul natijasining 50 foizidan oshirishga yo'l qo'yilmaydi. Magistratura bosqichida muqobil ta'lim shakllari asosida ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashga ruxsat beriladi. Oliy ta'lim tashkilotlarida muqobil ta'limning kredit-modul tizimiga asoslangan maqbullashtirilgan kunduzgi o'quv shakli (part-time education) bo'yicha o'qitishni yo'lga qo'yishga ruxsat beriladi. Ya'ni Farmonga ko'ra zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish

uzoq muddatli rejalashtirish ko'nikmalari rivojlanadi. Ta'lim tizimining keng qamrovligi va adaptivligi ta'minlanadi.

Ta'lim olishning maqbullashtirilgan shakli sifatida masofaviy ta'lim ham zamonaviy axborot-texnologiyalari sharoitida katta imkoniyat beradi. Masofaviy ta'limda vaqt va joy bo'yicha erkinlik mavjud. Talaba internet orqali o'ziga qulay vaqtni va joyda o'qish imkoniyatiga ega bo'ladi. Sirtqi ta'limda oldindan belgilangan aniq kunlarda va bir o'quv yili davomida ikki marotaba tashkil etiladigan sessiyalarda oliygo'ha borish talab qilingan bo'lsa, masofaviy ta'limda geografik cheklorlar yo'q - oliy ta'lim tashkilotidan uzoq masofada, hatto chet elda turib ham darslarda qatnashish mumkin.

Axborot-texnologiyalaridan samarali foydalanishda ham masofaviy ta'lim qulay hisoblanadi. Videodarslar, onlayn testlar, virtual forumlar va elektron darsliklardan foydalanish asosida ta'lim beriladi. Talaba materiallarni qayta-qayta ko'rib chiqishi mumkin, bu o'zlashtirish darajasini oshiradi. Bundan tashqari, masofaviy ta'limda talabalarning transport, turarjoi yoki kundalik xarajatlarini deyarli bo'lmaydi. Yana bir muhim jihat shundaki, masofaviy ta'limda platforma orqali talaba o'qituvchi bilan tez-tez muloqot qilishi mumkin. Talaba o'z savollariga tez javob olish imkoniga ega bo'ladi, doimiy ravishda muloqot tizimi o'ziga kerakli bo'lgan bilim va malakalarni puxta egallashini ta'minlaydi. Sirtqi ta'limda bu aloqa faqat sessiya paytida amalga oshiriladi.

O'zbekistonda masofaviy ta'lim shakli so'nggi yillarda jadal rivojlanib, oliy ta'lim muassasalarida keng joriy etilmoqda. 2022 yilda respublika oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'lim oluvchilarning soni 3 554 nafarni tashkil qilgan bo'lsa, 2024 yilga kelib ularning soni 18 325 nafargacha yetganligini alohida aytish joiz. Ya'ni yildan-yilga mazkur ta'lim shakliga ehtiyoj ortib bormoqda va shunga mos ravishda qabul kvotalari oshirilmoqda. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti hamda boshqa oliy o'quv yurtlarida masofaviy ta'lim markazlari va platformalari samarali ishlatilmoqda. Oliygo'hlardagi masofaviy ta'lim platformalar orqali talabalar fanlar bo'yicha materiallarni olishi, darslarda va imtihonlarda onlayn ishtirok etishi mumkin.

Ta'lim sifatini tashqi baholash va ta'lim xizmatlarini ko'rsatish yo'nalishida amalga oshirilgan islohotlar ta'lim jarayonining shaffofligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunday islohotlar orqali ta'lim tashkilotlari mas'uliyati kuchayib, milliy va xalqaro standartlarga mos, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash imkoniyati yanada kengayadi. Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi mustaqil tuzilma sifatida o'quv sifatini tashqi baholashning samarali yechimi bo'la oladi. Masofaviy va maqbullashtirilgan kunduzgi ta'lim shakllari yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoitlarni kengaytiradi, qamrov darajasi ortadi.

Mahmudjon BOLTABOYEV,
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi direktori,
iqtisodiy fanlari doktori, professor.



Fidjital-sport – kelajak o'yini

Butunjahon fidjital hamjamiyatining Dubayda o'tkazilgan "WPC Awards 2025" tadbirida fidjital-sport turining o'zbekistonlik vakillari yutuqlari e'tirof etildi.



Aytish joizki, xalqaro federatsiyasi Jahon fidjital tadbir dunyo bo'ylab fidjital-sportning rivojlanishiga hissa qo'shayotgan mamlakatlar uchun tashkil etildi. Unda O'zbekiston fidjital-sport federatsiyasi Jahon fidjital hamjamiyatining oltin a'zolik maqomiga ega bo'lgani e'lon qilindi va sertifikat hamda maxsus mukofot topshirildi.

Bokschilarimiz «Thailand Open» turnirida mutlaq g'olib!

Bangkok shahrida boks bo'yicha "Thailand Open" xalqaro musobaqasi o'z yakuniga yetdi.



Final janglarida ishtirok etgan 9 nafar vakillimizdan 5 tasi g'alaba qozonib, oltin medalga ega chiqdi. Shu tariqa O'zbekiston terma jamoasi turnirda 5 ta oltin, 4 ta kumush va 7 ta bronza medallarni jam'arib, umumjamoa hisobida birinchi o'rinni egalladi.

Qo'l jangida qo'limiz baland

29 may - 3 iyun kunlari Turkiyaning Bursa shahrida qo'l jangi sport turi bo'yicha kattalar o'rtasida jahon chempionati o'tkazildi.

32 ta davlatdan 300 dan ziyod sportchilar ishtirok etgan mazkur nufuzli musobaqada O'zbekiston vakillari umumjamoa hisobida 1-o'rinni (8 ta oltin, 3 ta kumush, 3 ta bronza medal) qo'lga kiritdi. 2-o'rin Rossiya (4 ta oltin, 2 ta kumush, 2 ta bronza medal), 3-o'rin Qozog'iston (2 ta oltin, 6 ta kumush, 4 ta bronza medal) sportchilariga nasib etdi.

«O'zbek botirlari» Gran-pri musobaqasida

Namangan shahrida sport kurashlari bo'yicha «O'zbek botirlari» Gran-pri musobaqasi bo'lib o'tdi.



Ikkinchi bor tashkil qilingan mazkur turnirda 7 mamlakattan 150 dan ziyod sportchi ishtirok etdi. Bahslar yunon-rum va erkin kurash bo'yicha o'tkazildi. Unda O'zbekiston terma jamoasining asosiy tarkib vakillari ham qatnashdi. Bu orqali murabbiylar shtabi sportchilarimizning bo'lajak jahon chempionati hamda boshqa nufuzli musobaqalarga tayyorgarligini ko'zdan kechirib oldi.

«Xalq so'zi».

TOMDAGI "XAZINA"

Xalqimizda "Izlagan imkon topar" degan naql bor. Aslida-ku, imkonsizlikning o'zi yo'q. Bunga, ayniqsa, Andijon viloyatida yaqqol guvoh bo'lish mumkin. Zero, hududning yer maydoni respublikamizning bir foizini ham tashkil etmaydi. Biroq aholi zichligi jihatidan u yetakchi o'rinda: 1 kilometr kvadrat maydonga o'rtacha 804,9 kishi to'g'ri keladi. Bu aholini mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanishga undaydi. Buni Oltinko'l tumanidagi Yangi chek mahallasida yashovchi Muhammadisлом Ikromiddinhojiyev faoliyati misolida ham ko'rish mumkin.



O'ramizdagi odamlar

– Bolaligimdan parrandachilikka qiziqaman, – deydi u biz bilan suhbatda. – U paytlarda hovlimizda qo'y, sigir boqardik. Ularning parvarishi ko'p vaqtni olgani bois dadam parranda boqishimga qarshilik qilardi. Shu sabab uydaqildan yashirib, tomida tovuq boqqanman. Bu ishim vaqti kelib asqatishi mumkinligini bilmaganman. Bugungi kunda o'zim alohida 2 sotixdan iborat hovlida yashayman. Bir qarashda imkoniyatlar cheklanganday bo'lsa-da,

mavjud sharoitdan unumli foydalanishga intilyapmiz. Masalan, bir sotix maydonidagi binoning tom qismini tovuqxonaga aylantirdik.

Muhammadisломning mo'jazzgina fermasida to'rt ming bosh tovuq, o'rdak, g'oz, kaplar va kurkalar uchun barcha sharoit yaratilgan. To'g'ri, ularni parvarishlash uslublari har xil. Shu bois binoning tom qismida har bir turdagi parranda uchun alohida qulayliklar barpo etilgan.

– G'ozdan qo'riqchi sifatida foydalanaman, – deydi suhbatdoshimiz. – Sababi u har qanday sharpani sezgan zahoti ovoz chiqarib, uy egasini xabardor qiladi. Tomorqaning bir chetidagi hovuzchaga tushish uchun zinadan foydalanishni o'zlashtirib olgan...

Bir muddat Saudiya Arabistonida oshpazlik bilan mashg'ul yigitning daromadi chakkimasdi. Biroq bu uning

Saminjon HUSANOV
(«Xalq so'zi»).

Vengriyada tanqli fotomuxbir Shandor Uyvarining O'zbekistonga bag'ishlangan fotoko'rgazmasi ochildi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G 642. 13 107 nusxada bosildi. Hajmi – 3 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'o'z bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqida ma'lumotlarni yuktib olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va ummulligiga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun oshimani rasmiylashtirgan tashkiloti javobgar.

Gazeta tahririyati kompyuter markazida terilish huunda operator M. Begmatov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifali chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.

Bosmaxsona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir S. Mamirov.
Musahhib Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxsonasi. Korxonada manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 20.50 Topshirildi — 01.15 1 2 3 4 5 6